



USAID
AMERIKA XALQIDAN



O'zbekiston Respublikasi
Adliya Vazirligi

SIYOSIY-HUQUQIY SOHADAGI XALQARO REYTING VA INDEKSLARNING SHARHI

Huquq
ustuvorligi
indeksi

Boshqaruv
sifati
indikatorlari

Korrupsiyani
qabul qilish
indeksi

Matbuot
erkinligi
indeksi

Jahon
mamlakatlari
demokratiyasi
indeksi



USAID
AMERIKA XALQIDAN



O'zbekiston Respublikasi
Adliya Vazirligi

SIYOSIY-HUQUQIY SOHADAGI XALQARO REYTING VA INDEKSLARNING SHARHI

Toshkent
"Akademnashr"
2023

UO'K: 316.344:34(575.1)
316.344:321(575.1)
KBK: 60.56
66.3

S 49 S 49

Siyosiy-huquqiy sohadagi xalqaro reyting va indekslarning sharhi [Matn] / mualliflar jamoasi. – Toshkent: Akademnashr, 2023. – 184 b.

ISBN 978-9943-8961-3-0

UO'K: 316.344:34(575.1)
316.344:321(575.1)
KBK: 60.56
66.3

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro maydondagi imijini mustahkamlash maqsadida 2019-2021-yillarda, xalqaro reytinglar va indekslar bilan ishlashning huquqiy, institutsional va tashkiliy asoslari yaratildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son Farmoniga muvofiq Xalqaro reytinglar va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi tashkil etildi.

O'zbekiston uchun ustuvor bo'lgan 19 ta xalqaro reyting va indekslar ro'yxati shakllantirildi. O'zbekiston uchun ustuvor xalqaro reytinglar va indekslar Respublika Kengashining ikki ishchi organi – Moliya vazirligi va Adliya vazirligi o'rtasida taqsimlandi.

Shuningdek, ustuvor xalqaro reyting va indekslarda mamlakatimiz o'rnini oshirishda hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning va ko'rilayotgan tashkiliy chora-tadbirlarning ahamiyati katta. Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar ham shular jumlasidandir. Shuni ta'kidlash lozimki, mazkur Strategiyaning 98-maqsadida jahon hamjamiyatida mamlakatimiz imijini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirish belgilangan.

Mazkur sharh beshta bobdan iborat bo'lib, unda **siyosiy-huquqiy** sohalarda ustuvor deb belgilangan xalqaro reyting va indekslar, ya'ni **Boshqaruv sifati indikatorlari** (Worldwide Governance Indicators), **Huquq ustuvorligi indeksi** (Rule of law, World Justice Project), **Korrupsiyani qabul qilish indeksi** (Corruption Perception Index), **Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi** (Democracy Index) va **Matbuot erkinligi indeksida** (Press Freedom Index) O'zbekistonning o'rnini va mazkur reyting va indeksning hisobotlarida O'zbekistonga berilgan tavsiyalar va kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan istiqbolli vazifalar tahlil qilingan.

MUALLIFLAR:

Dilafuz Sufieva	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i
Rustam Abdullaev	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari
Anjelika Shermatova	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash boshqarmasi bosh maslahatchisi
Javokhir Abdullaev	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash boshqarmasi yetakchi maslahatchisi
Odinabonu O'ktamxo'jayeva	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash boshqarmasi yetakchi maslahatchisi
Abdulkarim Zokirov	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash boshqarmasi mas'ul xodimi
Dilfuza Khabibullaeva	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash boshqarmasi mas'ul xodimi

Ushbu sharh USAIDning Huquqiy Islohotlar Dasturi doirasida chop etildi. Mazkur sharh AQSh Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) orqali ko'rsatilgan Amerika xalqining yordami asosida yaratilgan. Mahsulot mazmuni bo'yicha mas'uliyat Tetra Tech DPK ga yuklatiladi va USAID yoki AQSh hukumati rasmiy nuqtai nazarini aks ettirishi shart emas.

MUNDARIJA:

Kirish	6
I. Boshqaruv sifati indikatorlari	9
II. Huquq ustuvorligi indeksi	27
III. Korrupsiyani qabul qilish indeksi	47
IV. Matbuot erkinligi indeksi	67
V. Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi	83

KIRISH

Xalqaro reyting va indekslar jahon hamjamiyatida mamlakat nufuzini oshirishda, uning mavqeyini mustahkamlashda va shaffoflikni ta'minlashda ahamiyati beqiyosdir.

Insoniyat rivoji va taraqqiyoti, jamiyatning barcha sohalarida kechayotgan globallashuv jarayonlari va sodir bo'layotgan o'zgarishlar xalqaro hamkorlik va aloqalarni yangi bosqichga ko'tarishga nisbatan yangicha qarashning shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa, eng avvalo, mamlakatning jahon miqyosidagi o'brosi va imiji, xalqaro reyting va indekslarda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Bugungi kunda jamiyatning har bir sohasida islohotlar va yangiliklar jadal sur'atlarda davom etmoqda. Tabiiyki, bunday ijobiy o'zgarishlar natijasi nafaqat xalqimiz hayotida, balki nufuzli xalqaro reyting va indekslar ko'rsatkichlarida ham o'z ifodasini topib kelmoqda.

Ta'kidlash lozimki, xalqaro reyting va indekslar har bir mamlakatning rivojlanish jarayonini o'zida namoyon etib, davlat boshqaruvi sifati, aholining turmush darajasi, inson huquqlari muhofazasi, tadbirkorlik faoliyati va xorijiy investorlar uchun qulay muhit, barqaror iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlik kabi muhim jihatlarning ko'zgasidir. Bu jihatlarda mamlakatimizdagi islohotlar mohiyatida ham mujassam.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida** gi 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son Farmonining qabul qilinganligi yurtimizda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim qadam bo'ldi.

Mazkur Farmonga muvofiq, xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi tuzilib, sohada parlament nazorati o'rnatildi.

Shuningdek, yuqorida ta'kidlab o'tilgan Farmon asosida davlat organlari faoliyati natijadorligini oliy, ya'ni parlament darajasida nazorat qilish belgilangan. Bundan ko'zlangan maqsad – bu borada vazirlik va idoralar rahbarlarining mas'uliyatini oshirishdir. Shu bois, **Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi** tashkil etildi. Endilikda vazirlik va idoralar rahbarlari o'zlari mas'ul bo'lgan reyting va indekslarda ko'rsatkichlarni yaxshilash bo'yicha amalga

oshirilgan ishlar va belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan respublika kengashida hisobot berib boradilar.

Xalqaro reyting va indekslardagi mamlakatimiz o'rnining yaxshilanishi ko'p jihatdan qabul qilayotgan qonunlarimizning joylardagi ijrosiga bog'liq. Shuning uchun ham kengash tarkibiga mahalliy hokimlar kiritildi. Bu esa qonun talablarining joylardagi ijrosi yuzasidan muammolarni vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash joizki, mas'ul davlat organlarining o'zlariga birlashtirilgan xalqaro reyting va indekslar metodologiyasini izchillik bilan o'rganish, uni to'g'ri talqin qilib, amaliyotga tatbiq eta olish, xalqaro reyting va indeksni beruvchi tashkilot bilan aloqalarni o'rnata olishning ahamiyati katta.

Har bir tizimda ishlarni samarali tashkil etish maqsadida barcha vazirlik va idoralarda xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha tarkibiy bo'linmalar tashkil etildi. Bu esa, mazkur sohadagi faoliyatni osonlashtirish va uning sifatini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu maqsad uchun tayinlangan xodimlar doimiy ravishda o'zlarining vazirligi yoki idorasi mas'ul bo'lgan xalqaro reyting va indeks bo'yicha ish olib boradi.

Xalqaro reyting va indekslar dunyodagi institutsional muhitning sifatini baholashda iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan vositadir. Ular nafaqat ekspertlar, balki davlatlar darajasida ham islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy siyosat mezonini sifatida qo'llanib kelinadi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz ko'pgina ustuvor reytinglarda yuqorilab borayotgani yurtimizda aholi turmush farovonligini oshirish, jamiyatimizda ochiqlik, oshkoralikni ta'minlash borasida qilinayotgan maqsadli ishlarning muhim natijasidir.

Xususan, iqtisodiyotda davlatning rolini kamaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sish istiqbollarni yaxshilashga qaratilgan bosqichma-bosqich islohotlar Jahon bankining Boshqaruv sifati indikatorlarida, "Transparency International"ning Korrupsiyani qabul qilish indeksi hamda "World Justice Project"ning Huquq ustuvorligi indeksida mamlakatimiz o'rnini yaxshilanishiga olib keldi.

Bir so'z bilan aytganda, xalqaro reyting va indekslarning ahamiyatli jihati davlatimiz oldida turgan ustuvor vazifalarni belgilash, jahon

hamjamiyatida davlatimiz mavqeyini ko'tarish va bu orqali tashqi investitsion jazibadorlikni oshirish, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish hamda yanada mustahkamlashdan iborat.

Mazkur to'plam O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son Farmoniga muvofiq mamlakatimiz uchun siyosiy-huquqiy sohada ustuvor deb belgilangan reyting va indekslar haqida umumiy ma'lumotlar, ularning metodologiyalari, baholash mezonlari, shu reyting va indekslarda O'zbekistonning egallagan o'rne va yetakchi o'rinlardagi davlatlar tajribalarini o'z ichiga olgan.

Xalqaro reyting va indekslarni yurituvchi tashkilotlar asosan tadbirkorlar va aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari, nodavlat notijorat tashkilotlar ma'lumotlari hamda milliy va xorijiy ekspertlar xulosalariga tayanishini hisobga olgan holda, bu to'plamni chop etishning asosiy maqsadlaridan biri sifatida respublika miqyosida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohadagi islohotlar va ularning natijalaridan mahalliy aholi, tadbirkorlar, shuningdek xalqaro va xorijiy hamkorlarning xabardorligini oshirish nazarda tutilgan.

Boshqaruv sifati indikatorlari

Boshqaruv
sifati
indikatorlari

Huquq
ustuvorligi
indeksi

Korrupsiyani
qabul qilish
indeksi

Matbuot
Erkinligi
Indeksi

Jahon
mamlakatlari
demokratiyasi
indeksi

Reyting haqida qisqacha ma'lumot

Umumiy ma'lumotlar

Boshqaruv sifati indikatorlari (*Worldwide governance indicators*) Jahon banki tomonidan **har yili** tuzib boriladi. Boshqaruv sifati indikatorlari 1996-yildan buyon muntazam ravishda jahon mamlakatlarida indeksda belgilangan 6 yo'nalishda baholov natijalarini amalga oshirib keladi. Odatda yangilangan natijalar har yilning **sentabr** va **oktabr** oylarida e'lon qilinadi. 2022-yilda yangilangan **2021-yil yakunlari uchun natijalar** joriy yilning **23-sentabr** kuni e'lon qilinib unga ko'ra, umumiy hisobda **208** ta davlat baholangan.

Ushbu reytingni moliyalashtirish Jahon bankining **"O'zgarish uchun ko'nikma"** dasturi doirasida amalga oshiriladi. Boshqaruv sifati indikatorlari (*WGI*) mamlakatlardagi ko'plab korxonalar, fuqarolar va ekspertlar so'rovi tomonidan taqdim etilgan boshqaruv sifati haqidagi fikrlarni jamlagan tadqiqot ma'lumotlar to'plamidir.

Ma'lumot manbalari

Boshqaruv sifati indikatorlari 30 ta asosiy ma'lumot manbalariga asoslangan boshqaruvning majmuaviy ko'rsatkichlarini jamlovchi indeks hisoblanadi. Indeksning asosiy axborot manbalari o'zgarmas xarakterga ega emas, lozim topilgan holatlarda bir axborot manbasi o'rniga boshqa axborot manbasi ma'lumotlaridan foydalaniladi. Bu reytingning asosiy axborot manbalari barchasidan tegishli yo'nalishda olingan mamlakatlar kesimidagi ma'lumotlar jamlanib, har bir indikator kesimida alohida-alohida ma'lumotlar taqsimlanadi va tahlil qilinadi. Ushbu axborot manbalari taqdim etgan ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri reytingga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ma'lumotlar bir qator tadqiqot institutlari, tahlil markazlari, xalqaro va mahalliy nodavlat notijorat tashkilotlar, xalqaro tashkilotlar va xususiy sektor firmalaridan to'planadi.

Boshqaruv sifati indikatorlarida mamlakatlarni belgilangan **6 ta indikator** bo'yicha baholash jarayonlarini amalga oshirishda umumiy hisobda **30 ta axborot manbasidan** foydalaniladi ular quyidagilardan iborat:

- Afrika taraqqiyot bankining milliy siyosatlar va muassasalarni baholashi;
- Afrobarometr;
- Osiyo taraqqiyot bankining milliy siyosatlar va muassasalarni baholashi;
- Biznes va tadbirkorlik muhitining tavsifi (BEEPS);

Boshqaruv sifati indikatorlari

- Bertelsman transformatsiya indeksi;
- "Freedom House" kompaniyasining "Countries at the Crossroads" indeksi;
- Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining O'tish jarayoni to'g'risidagi hisoboti;
- "Economist Intelligence Unit" kompaniyasining xavf-xatarlar va demokratiya indeksi;
- Yevropa boshqaruv sifati indeksi (tayanch so'rovlar ma'lumotlari);
- "Freedom House";
- "Transparency International" kompaniyasining Jahondagi korrupsiya barometri so'rovi;
- Jahon iqtisodiy forumining Global raqobatbardoshlik bo'yicha hisoboti;
- Global halollik indeksi;
- Gallup Butunjahon so'rovi;
- "Meros" jamg'armasining Iqtisodiy erkinlik indeksi;
- "Human Rights Measurement Initiative" NNT;
- Singranelli Richards Inson huquqlari bo'yicha ma'lumotlar bazasi va siyosiy terror shkalasi;
- Qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha xalqaro jamg'armasining (IFAD) Qishloq xo'jaligining samaradorligini baholashi;
- iJET Mamlakat xavfsizligi risklari reytingi;
- Institutsional profillarning ma'lumotlar bazasi;
- African saylovlar indeksi;
- Lotin amerikasi barometri;
- "Vibrant Information Barometer" (VIBE) Tadqiqotlar va ma'lumotlar almashinuvi bo'yicha xalqaro kengash;
- Xalqaro byudjet loyihalarining byudjet shaffofligi indeksi;
- Jahon bankining milliy siyosatlar va muassasalarni baholashi;
- "Siyosiy xavf-xatarlar xizmatlari" (PRS) guruhining Mamlakatlardagi xavf-xatarlar bo'yicha xalqaro qo'llanmasi;
- "Chegara bilmas muxbirlar" tashkilotining Matbuot erkinligi indeksi;
- AQSH davlat departamentining Odam savdosi bo'yicha hisoboti;
- "Varieties of Democracy Project" (V-Dem) loyihasi;
- "World Justice Project" (WJP) tashkilotining Qonun ustuvorligi indeksi.

O'zbekistonning ko'rsatkichlarini hisoblashda yuqorida sanab o'tilgan **30** ta axborot manbasidan **16** tasining ma'lumotlaridan foydalanilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, hech qaysi mamlakatni axborot manbalarining barchasi baholamaydi, chunki umumiy hisobda 30 ta axborot manbasi qatorida ayrimlari faqat Afrika qit'asiga mansub davlatlar, ayrimlari faqat Yevropa mamlakatlari uchun bo'lsa, yana boshqalari faqar Osiyo davlatlari uchun ma'lumotlarni reytingga taqdim etadi.









O'zbekistonning ko'rsatkichlarini hisoblashda foydalanilgan axborot manbalari quyidagilardan iborat:

Indikatorlar »		Siyosiy barqarorlik va zo'ravonlik/terrorizmning mavjud emasligi	Hukumat samaradorligi	Aholi fikrini hisobga olish va hisobdorlik	Tartibga solish sifati	Huquq ustuvorligi	Korruptsiyani tiyib turish
Nº	Axborot manbalari	2021					
1.	"The Economist Intelligence Unit" kompaniyasi <i>(Mamlakatga oid sharh va Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi)</i>	0.45	0	0.14	0.10	0.16	0
2.	"IHS Markit" tashkiloti <i>("Jahon iqtisodiy xizmati" ma'ruzasi)</i>	0.67	0.61		0.58	0.44	0.33
3.	Bertelsman fondi <i>(Transformatsiya indeksi)</i>		0.38	0.24	0.40	0.35	0.30
4.	Butunjahon odil sudlov loyihasi tashkiloti <i>(Huquq ustuvorligi indeksi)</i>	1		0.39	0.44	0.62	0.46
5.	Jahon banki <i>(Mamlakatga oid siyosat va institutsional baholash ma'ruzalari)</i>		0.60		0.55	0.50	0.40
6.	Osiyo taraqqiyot banki <i>(Mamlakatga oid siyosat va institutsional baholash ma'ruzalari)</i>		0.60		0.60	0.60	0.40
7.	Xalqaro qishloq xo'jaligini rivojlantirish fondi <i>("Qishloq xo'jaligini baholash" tadqiqoti)</i>		0.28	0.40	0.50	0.59	0.12
8.	Notr-dam universiteti va Gyoteburg universiteti <i>("Demokratiyaning turli jihatlarini loyihasi" ma'lumotlari)</i>			0.22		0.22	0.25

Boshqaruv sifati indikatorlari

Indikatorlar »		Siyosiy barqarorlik va zo'rovonlik/terrorizmning mavjud emasligi	Hukumat samaradorligi	Aholi fikrini hisobga olish va hisobdorlik	Tartibga solish sifati	Huquq ustuvorligi	Korrupsiyani tiyib turish
№	Axborot manbalari	2021					
9.	"Freedom House" tashkiloti (<i>"Freedom in the World", "Freedom of the Press", "Freedom of the Net (FON)", "Nations in Transit (FNT)" so'rovnomalari</i>)			0.08		0.04	0.04
10.	"Gallup" tashkiloti (<i>"Gallup World Poll" so'rovi</i>)		0.75			0.84	
11.	"iJET" tashkiloti (<i>"Country Security Risk Ratings" indeksi</i>)	0.50					
12.	"Reporters without borders" tashkiloti (<i>matbuot erkinligi indeksi</i>)			0.46			
13.	"Meros" jamg'armasi (<i>Iqtisodiy erkinlik indeksi</i>)				0.45		
14.	Bingemton universiteti (<i>"Cingranelli-Richards Human rights database" ma'lumotnomasi</i>) va Shimoliy Korolina universiteti (<i>"Political Terror Scale" ma'lumotnomasi</i>)	0.50					
15.	AQSH davlat departamenti (<i>Odam savdosiga oid ma'ruzasi</i>)					0.67	
16.	"Political risk services international country risk guide" (<i>siyosiy xavf xizmatlari xalqaro mamlakatlar xatarlari bo'yicha qo'llanma</i>)	0.82	0.75	0.67	0.73	0.83	0.42

Taqqoslash uchun quyida reytingda baholangan mamlakatlardan ayrimlarini umumiy axborot manbalarining nechtasi baholagani xususida ma'lumotlar taqdim etiladi:

-  **Norvegiya** – umumiy hisobda **10 ta** manba baholagan;
-  **Kanada** – umumiy hisobda **11 ta** manba baholagan;
-  **AQSH** – umumiy hisobda **12 ta** manba baholagan;
-  **Rossiya** – umumiy hisobda **11 ta** manba baholagan;
-  **Qozog'iston** – umumiy hisobda **12 ta** manba baholagan;
-  **Yaponiya** - umumiy hisobda **11 ta** manba baholagan;
-  **Misr** - umumiy hisobda **14 ta** manba baholagan;
-  **Braziliya** – umumiy hisobda **15 ta** manba baholagan.

Boshqaruv sifati indikatorlarining rasmiy veb sayti: info.worldbank.org.

Reyting metodologiyasi

Indikator va baholash

Boshqaruv sifati indikatorlarida mamlakatlarga tegishli indikatorlar kesimida **-2,5 ball**dan (**eng quyi ko'rsatkich**) **+2,5 ball**gacha (**eng yaxshi ko'rsatkich**) oraliqda baho qo'yiladi. Ta'kidlash joiz, ushbu reytingda mamlakatlarning 6 ta indikator bo'yicha ballari alohida tarzda amalga oshiriladi. Boshqa reytinglardan asosiy farqi ham aynan shunda, ya'ni barcha indikatorlar natijalari umumlashtirilib har bir mamlakat uchun yoki global miqyosda yaxlit bir xil ball va o'rin belgilanmaydi. Har bir indikator bo'yicha natijalar alohida e'lon qilinadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Jahon banki tomonidan tuziluvchi Boshqaruv sifati indikatorlari mamlakatlarni umumiy 6 ta indikator bo'yicha baholaydi va bular quyidagilar:

- Hukumat samaradorligi indikator;
- Siyosiy barqarorlik va zo'ravonlik/terrorizmning mavjud emasligi indikator;
- Tartibga solish sifati indikator;
- Korrupsiyani tiyib turish indikator;
- Huquq ustuvorligi indikator;
- Aholi fikrini inobatga olish va hisobdorlik indikator.

Yuqorida sanab o'tilgan indikatorlar quyidagi sohalalarni tahlil qiladi va mas'ul yo'nalishi bo'yicha quyidagi savollar doirasida mamlakatlarga baho beradi:

Aholi fikrini inobatga olish va hisobdorlik – mamlakat hududida so'z erkinligi, uyushmalar erkinligi va erkin ommaviy axborot vositalarining faoliyati qay darajada ekanligi yuzasidan o'rganishlar.

Baholash doirasida ushbu indikator quyidagi savollar yuzasidan baholovni amalga oshiradi:

- siyosiy ishtirok;
- jamiyatda demokratik institutlarning barqarorligi;
- siyosiy va ijtimoiy integratsiya;
- davlat xizmatchilarining hisobdorligi;
- inson huquqlari;
- yig'ilish va uyushmalar erkinligi;
- manfaatlar to'qnashuvi.
- siyosiy huquqlar;
- fuqarolik erkinliklari;
- mustaqil ommaviy axborot vositalari;
- fuqarolik jamiyati institutlari;
- saylov jarayonlari;
- internet erkinligi;
- qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun siyosiy-huquqiy baza;
- hukumat va qishloq xo'jaligi korxonalarini o'rtasidagi muloqot;
- fermer va dehqon xo'jaliklari uchun huquqiy baza va avtonomiya.

Siyosiy barqarorlik va zo'ravonlik/terrorizimning mavjud emasligi – mamlakat hududida turli xildagi tartibsizliklar va vayronagarchiliklarning mavjudligi hamda fuqarolarning fundamental huquqlari (*yashash huquqi, erkin ko'chish huquqi va boshqalar*) cheklanmaganligi.

Baholash doirasida ushbu indikator quyidagi savollar yuzasidan baholovni amalga oshiradi:

- siyosiy qotilliklar;
- hokimiyat tomonidan o'zboshimchalik bilan qamoqqa olinishlar;
- hokimiyat tomonidan qiynoqlar qo'llanilishi;
- siyosiy terror;
- hokimiyatning tinch yo'l bilan almashinuvi;
- qurolli to'qnashuvlar darajasi;

- namoyishlar vaqtda ommaviy tartibsizliklarning bo'lmashligi;
- ijtimoiy noroziliklar;
- xalqaro ziddiyatlar/terrorizm tahdidi;
- yashirin siyosiy tashkilotlar tomonidan jamoat tartibi buzilishining intensivligi;
- xavfsizlikka tahdid darajasi.

Hukumat samaradorligi – davlat xizmatlari sifati va uning siyosiy tazyiqlardan mustaqillik darajasi, siyosatni shakllantirish va amalga oshirish sifati hamda hukumatning bunday siyosatga sodiqligining ishonchliliqi haqidagi tasavvurlarni aniqlash.

Baholash doirasida ushbu indikator quyidagi savollar yuzasidan baholovni amalga oshiradi:

- resurslar taqsimotining samaradorligi;
- davlat boshqaruvi sifati darajasi;
- daromadlarni safarbar qilish samaradorligi;
- byudjet va moliya boshqaruvi sifati darajasi;
- byurokratiya darajasi;
- hokimiyat institutlarining samaradorligi;
- jamoat transporti tizimidan xalqning qoniqish darajasi;
- xalqning yo'llar sifatidan qoniqish darajasi;
- ta'lim tizimidan qoniqish;
- qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun davlat resurslarini taqsimlash va boshqarish;
- siyosat izchilligi va istiqbolli rejalar mavjudligi;
- transport infratuzilmasining barqarorligi;
- davlatning asosiy oziq-ovqat, transport va energiya ta'minlay olmay qolish ehtimoli;
- aholining tibbiy xizmatlardan qoniqish darajasi;
- ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik va sanitariya darajasi.

Tartibga solish sifati – hukumatning xususiy sektor rivojlanishiga ruxsat beruvchi va rag'batlantiruvchi asosli siyosat va qoidalarni ishlab chiqish va amalga oshirish salohiyati haqidagi tasavvurlarni o'rganish.

Baholash doirasida ushbu indikator quyidagi savollar yuzasidan baholovni amalga oshiradi:

- mamlakatdagi savdo siyosati;

Boshqaruv sifati indikatorlari

- mamlakatda biznes yurituvini tartibga solinganlik darajasi;
- nosog'lom raqobat muhitining mavjudligi;
- kamsituvchi tarif va bojlarning mavjudligi;
- ichki bozorni haddan ortiq himoya qilish darajasi;
- kamsituvchi soliqlarning mavjudligi;
- investitsiyaviy va moliyaviy erkinlik;
- agrobiznes uchun qulay investitsiya muhiti;
- biznes ochish va yuritish uchun haddan ortiq byurokratik to'siqlar va hujjatlar;
- milliy qonunchilikka ko'ra biznes ochishning osonlik darajasi;
- davlat yoqilg'i mahsulotlarining subsidiyalanishi.

Huquq ustuvorligi – mamlakat hududida sudlov tizmining mustaqilligi va odilligi, fuqarolarning huquq va erkinliklari to'liq ta'minlanganligi va mamlakat aholisining mavjud sudlov tizimiga ishonchini o'rganish.

Baholash doirasida ushbu indikator quyidagi savollar yuzasidan baholovni amalga oshiradi:

- mulk huquqining ta'minlanganlik darajasi;
- hokimiyatlar o'z faoliyatini qonunlarga muvofiq amalga oshirishi;
- mustaqil sud hokimiyati;
- davlat idoralari va xususiy sektor rahbarlari va xodimlarining o'z vakolatlarini suiiste'mol qilganligi uchun jazoga tortilganlik darajasi;
- sud jarayonlarining shaffof va holislik darajasi;
- intellektual mulk huquqining himoyalanganligi;
- xususiy mulkning himoyalanganlik darajasi;
- sudan qishloq xo'jaligi maqsadida foydalanish;
- davlat va davlat korxonalarini tomonidan kelishuvlarning buzilishi darajasi;
- jinoiy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar darajasi (narkotik, qurol va odam savdosi);
- sud qarorlarining ijro qilinish darajasi;
- hukumatning soliqlarni undirish darajasi;
- davlatning xususiy mulkka nisbatan bosim o'tkazish darajasi;
- davlat tomonidan yer ekspropriatsiya qilingan taqdirda unga munosib kompensatsiya to'lab berishi darajasi;
- milliy va xorijiy xususiy aksiyadorlar o'rtasida shartnoma qoidalariga rioya qilish darajasi.

Korrupsiyani tiyib turish – davlat tashkilotlari va idoralari, sud tizimi hamda xususiy sektorlarda mansabdor shaxslarning faoliyati davomida korrupsion holatlarga yo'l qo'yish jihatlari va omillarining tahlili.

Baholash doirasida ushbu indikator quyidagi savollar yuzasidan baholovni amalga oshiradi:

- davlat sektorining shaffofligi;
- davlat sektorlaridagi korrupsion holatlar darajasi;
- korrupsiyaga qarshi kurashga yo'naltirilgan siyosat va choralar;
- davlat xizmatchilari orasida korrupsiya darajasi;
- qishloq joylardagi javobgarlik, shaffoflik va korrupsiya darajasi;
- biznes sektorida korrupsiya;
- xorijiy kompaniyalar va davlat organlari o'rtasidagi korrupsiya;
- ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy holatlar;
- sudlov sohasidagi korrupsiya darajasi;
- tibbiyot sohasidagi korrupsiya darajasi;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar sohasidagi korrupsiya darajasi;
- xizmat ko'rsatish sohasidagi korrupsiya darajasi;
- tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi nazorat mavjudligi.

Reytingda ko'rsatkichlar va O'zbekistonning o'rnini

Baholov mezonlari

Boshqaruv sifati indikatorlarida (*Worldwide Governance Indicators*) baholash boshqa reyting va indekslardan farqli o'laroq, global yoki mintaqalar miqyosida yoki daromadlar miqyosida baholanmaydi. Har bir indikator bo'yicha alohida tarzda baholash amalga oshiriladi va unda mamlakatlar baholangan natijalariga qarab indikatorlar kesimida tegishli baholanadi.

2022-yilgi reyting dinamikasi va O'zbekistonning reytingdagi natijalari

Aholi fikrini inobatga olish va hisobdorlik indikatorida Norvegiya, Finlandiya va Yangi Zelandiya (mos ravishda **+1,75**, **+1,62** va **+1,62** ball natija bilan) eng yuqori baholangan davlatlar sifatida keltirilgan. Aksincha, **Suriya**, **Eritreya** hamda **Shimoliy Koreya** davlatlari ushbu indikator kesimida eng quyi o'rinlarda qayd etilgan mamlakatlar sifatida baholangan (mos ravishda **-1,92**, **-1,93** va **-2,07** ball natija bilan).

Boshqaruv sifati indikatorlari

O'zbekiston ushbu indikatorda 2021-yil yakunlari bo'yicha reyting hisobotida **-1,40** ball ko'rsatkich bilan **208 ta** davlat orasida **182-o'rinda** qayd etilgan.

Siyosiy barqarorlik va zo'raonlik/terrorizmning mavjud emasligi indikatorida **Grenlandiya (+1,88** ball ko'rsatkich bilan), **Kayman orollari (+1,67** ball ko'rsatkich bilan) va **Lixtenshteyn (+1,64** ball ko'rsatkich bilan) eng yuqori baholangan davlatlar sifatida keltirilgan. Aksincha, **Liviya (-2,37** ball ko'rsatkich bilan), **Iroq (-2,40** ball ko'rsatkich bilan) hamda **Afg'oniston (-2,50** ball ko'rsatkich bilan) davlatlari ushbu indikator kesimida eng quyi o'rinlarda qayd etilgan mamlakatlar sifatida baholangan.

O'zbekiston ushbu indikatorda 2021-yil yakunlari bo'yicha reyting hisobotida **-0,24** ball ko'rsatkich bilan **208 ta** davlat orasida **130-o'rinda** qayd etilgan.

Hukumat samaradorligi indikatorida **+2,29** ball ko'rsatkich bilan **Singapur, +2,03** ball ko'rsatkich bilan **Shveysariya** va **+2** ball ko'rsatkich bilan **Daniya** eng yuqori baholangan davlatlar sifatida keltirilgan. Aksincha, **-2,19** ball ko'rsatkich bilan **Gaiti, -2,30** ball ko'rsatkich bilan **Yaman** hamda **-2,38** ball ko'rsatkich bilan **Janubiy Sudan** davlatlari ushbu indikator kesimida eng quyi o'rinlarda qayd etilgan mamlakatlar sifatida baholangan.

O'zbekiston ushbu indikatorda 2021-yil yakunlari bo'yicha reyting hisobotida **-0,20** ball ko'rsatkich bilan **208 ta** davlat orasida **116-o'rinda** qayd etilgan.

Tartibga solish sifati indikatorida, **Singapur +2,23** ball ko'rsatkich bilan, **Lyuksemburg +1,92** ball ko'rsatkich bilan va **Finlandiya +1,90** ball ko'rsatkich bilan eng yuqori baholangan davlatlar sifatida keltirilgan. Aksincha, **Venesuela -2,20** ball ko'rsatkich bilan, **Eritreya -2,27** ball ko'rsatkich bilan **Yaman** hamda **Shimoliy Koreya -2,33** ball ko'rsatkich bilan ushbu indikator kesimida eng quyi o'rinlarda qayd etilgan mamlakatlar sifatida baholangan.

O'zbekiston ushbu indikatorda 2021-yil yakunlari bo'yicha reyting hisobotida **-0,58** ball ko'rsatkich bilan **208 ta** davlat orasida **144-o'rinda** qayd etilgan.

Huquq ustuvorligi indikatorida, **Finlandiya, Norvegiya, va Daniya** eng yuqori baholangan davlatlar sifatida keltirilgan (mos ravishda **+2,06, +1,95** va **+1,94** ball natija bilan). Aksincha, **Suriya, Somali** hamda **Venesuela** davlatlari ushbu indikator kesimida eng quyi o'rinlarda qayd etilgan mamlakatlar sifatida baholangan (mos ravishda **-2,07, -2,27** va **-2,30** ball natija bilan).

O'zbekiston ushbu indikatorida 2021-yil yakunlari bo'yicha reyting hisobotida **-0,89** ball ko'rsatkich bilan **208 ta** davlat orasida **168-o'rinda** qayd etilgan.

Korrupsiyani tiyib turish indikatorida indikatorida **Daniya (+2,37** ball ko'rsatkich bilan), **Finlandiya (+2,27** ball ko'rsatkich bilan) va **Yangi Zelandiya (+2,20** ball ko'rsatkich bilan) eng yuqori baholangan davlatlar sifatida keltirilgan. Aksincha, **Somali (-1,78** ball ko'rsatkich bilan), **Suriya (-1,78** ball ko'rsatkich bilan) hamda Janubiy Sudan **(-1,82** ball ko'rsatkich bilan) ushbu indikator kesimida eng quyi o'rinlarda qayd etilgan mamlakatlar sifatida baholangan.

O'zbekiston ushbu indikatorida 2021-yil yakunlari bo'yicha reyting hisobotida **-0,81** ball ko'rsatkich bilan **208 ta** davlat orasida **161-o'rinda** qayd etilgan.

So'nggi to'rt yilda O'zbekistonning reytingdagi ko'rsatkichlari va MDH mamlakatlari bilan natijalar taqqoslamasi

2017-yil

Boshqaruv sifati indikatorlarining (*Worldwide Governance Indicators*) 2017-yilgi natijalariga ko'ra, O'zbekistonning qayd etgan natijalari quyidagicha baholangan. Ta'kidlash lozimki, o'sha yili reytingda umumiy hisobda 204 ta mamlakat baholangan.

- Aholi fikrini inobatga olish va hisobdorlik indikatorida **-1,80** ball ko'rsatkich bilan **197-o'rinda**;
- Siyosiy barqarorlik va zo'ravonlik/terrorizmning mavjud emasligi indikatorida **-0,24** ball ko'rsatkich bilan **131-o'rinda**;
- Hukumat samaradorligi indikatorida **-0,56** ball ko'rsatkich bilan **144-o'rinda**;
- Tartibga solish sifati indikatorida **-1,28** ball ko'rsatkich bilan **191-o'rinda**;
- Huquq ustuvorligi indikatorida **-1,12** ball ko'rsatkich bilan **186-o'rinda**;
- Korrupsiyani tiyib turish indikatorida **-1,17** ball ko'rsatkich bilan **184-o'rinda** qayd etilgan.

2018-yil

Boshqaruv sifati indikatorlarining (*Worldwide Governance Indicators*) 2018-yilgi natijalariga ko'ra, O'zbekistonning qayd etgan natijalari

Boshqaruv sifati indikatorlari

quyidagicha baholangan. Ta'kidlash lozimki, o'sha yili reytingda umumiy hisobda 208 ta mamlakat baholangan.

- Aholi fikrini inobatga olish va hisobdorlik indikatorida **-1,63** ball ko'rsatkich bilan **195-o'rinda**;
- Siyosiy barqarorlik va zo'rvonlik/terrorizmning mavjud emasligi indikatorida **-0,30** ball ko'rsatkich bilan **136-o'rinda**;
- Hukumat samaradorligi indikatorida **-0,55** ball ko'rsatkich bilan **139-o'rinda**;
- Tartibga solish sifati indikatorida **-1,11** ball ko'rsatkich bilan **185-o'rinda**;
- Huquq ustuvorligi indikatorida **-1,09** ball ko'rsatkich bilan **182-o'rinda**;
- Korrupsiyani tiyib turish indikatorida **-1,06** ball ko'rsatkich bilan **182-o'rinda** qayd etilgan.

2019-yil

Boshqaruv sifati indikatorlarining (*Worldwide Governance Indicators*) 2019-yilgi natijalariga ko'ra, O'zbekistonning qayd etgan natijalari quyidagicha baholangan. Ta'kidlash lozimki, o'sha yili reytingda umumiy hisobda 208 ta mamlakat baholangan.

- Aholi fikrini inobatga olish va hisobdorlik indikatorida **-1,65** ball ko'rsatkich bilan **195-o'rinda**;
- Siyosiy barqarorlik va zo'rvonlik/terrorizmning mavjud emasligi indikatorida **-0,28** ball ko'rsatkich bilan **138-o'rinda**;
- Hukumat samaradorligi indikatorida **-0,52** ball ko'rsatkich bilan **136-o'rinda**;
- Tartibga solish sifati indikatorida **-1,03** ball ko'rsatkich bilan **183-o'rinda**;
- Huquq ustuvorligi indikatorida **-1,06** ball ko'rsatkich bilan **180-o'rinda**;
- Korrupsiyani tiyib turish indikatorida **-1,03** ball ko'rsatkich bilan **177-o'rinda** qayd etilgan.

2020-yil

Boshqaruv sifati indikatorlarining (*Worldwide Governance Indicators*) 2020-yilgi natijalariga ko'ra, O'zbekistonning qayd etgan natijalari quyidagicha baholangan. Ta'kidlash lozimki, o'sha yili reytingda umumiy hisobda 209 ta mamlakat baholangan.

- Aholi fikrini inobatga olish va hisobdorlik indikatorida **-1,53** ball ko'rsatkich bilan **195-o'rinda**;

- Siyosiy barqarorlik va zo'rvonlik/terrorizmning mavjud emasligi indikatorida **-0,43** ball ko'rsatkich bilan **146-o'rinda**;
- **Hukumat samaradorligi** indikatorida **-0,53** ball ko'rsatkich bilan **138-o'rinda**;
- **Tartibga solish sifati** indikatorida **-0,98** ball ko'rsatkich bilan **179-o'rinda**;
- **Huquq ustuvorligi** indikatorida **-1,08** ball ko'rsatkich bilan **180-o'rinda**;
- **Korrupsiyani tiyib turish** indikatorida **-1,05** ball ko'rsatkich bilan **176-o'rinda** qayd etilgan..

O'zbekistonning 2020-2021-yildagi natijalari va o'rinlarining o'zgarishi solishtirma jadvali

№	Indikatorlar	Berilgan balla			Reytingdagi o'rin				
		2020	2021	o'zgarish	2020	2021	o'zgarish		
1.	Siyosiy barqarorlik va zo'rvonlik/terrorizmdan holilik	<i>ball</i>	-0.43	-0.24	+0.19	<i>o'rin</i>	146	130	+16
	<i>axborot manbalari soni</i>	5	6	+1	<i>mamlakat soni</i>	213	213	0	
2.	Hukumat samaradorligi	<i>ball</i>	-0.53	-0.20	+0.33	<i>o'rin</i>	138	116	+22
	<i>axborot manbalari soni</i>	7	8	+1	<i>mamlakat soni</i>	209	209	0	
3.	Aholi fikrini inobatga olish va hisobdorlik	<i>ball</i>	-1.53	-1.40	+0.13	<i>o'rin</i>	195	182	+13
	<i>axborot manbalari soni</i>	7	8	+1	<i>mamlakat soni</i>	208	208	0	
4.	Tartibga solish sifati	<i>ball</i>	-0.98	-0.58	+0.40	<i>o'rin</i>	179	144	+35
	<i>axborot manbalari soni</i>	8	9	+1	<i>mamlakat soni</i>	209	209	0	
5.	Huquq ustuvorligi	<i>ball</i>	-1.08	-0.89	+0,19	<i>o'rin</i>	180	168	+12
	<i>axborot manbalari soni</i>	11	12	+1	<i>mamlakat soni</i>	209	209	0	
6.	Korrupsiyani tiyib turish	<i>ball</i>	-1.05	-0.81	+0,24	<i>o'rin</i>	176	161	+15
	<i>axborot manbalari soni</i>	9	10	+1	<i>mamlakat soni</i>	209	209	0	

O'zbekiston va ayrim mamlakatlarning 2021-yil yakunlari yuzasidan egallagan pog'onalari

Indikator	Aholi fikrini inobatga olish va hisobdorlik	Siyosiy barqarorlik va zo'rvonlik/terrorizmdan holilik	Hukumat samaradorligi	Tartibga solish sifati	Huquq ustuvorligi	Korrupsiyani tiyib turish
Belarus	194	170	165	172	182	107
Gruziya	110	146	59	37	91	52
Rossiya	167	164	115	141	167	168
Tojikiston	201	159	143	184	186	195
O'zbekiston	182	130	116	144	168	161
Qirg'iziston	141	147	155	143	179	182
Qozog'iston	169	133	90	92	138	109

O'zbekistonning Boshqaruv sifati indikatorlarining 2021-yil yakunlari yuzasidan e'lon qilingan natijalari yaxshilanishiga sabab bo'lgan omillar

Tahlillar ko'rsatishicha, Boshqaruv sifati indikatorlarining **barchasida** O'zbekistonning o'rnini **yaxshilanishiga quyidagi** amalga oshirilgan islohotlar ijobiy ta'sir ko'rsatgan:

- byudjet ochiqligini ta'minlashga xizmat qiluvchi [d.xarid.uz](#), [e-xarid.uz](#) va [cooperation.uz](#) kabi maxsus portallar ishga tushirildi.
- davlat xaridlarining barcha turlari uchun maxsus axborot portali joriy etildi;
- tazyiq va zo'rvonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlar uchun **"Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazlari"** tashkil etildi;
- tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga **himoya orderini** berish tartibi joriy qilindi;
- xotin-qizlar bilan bevosita shug'ullanuvchi yangi institutsional tizim, **Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tashkil etildi**;
- norma ijodkorligi sifatini oshirish maqsadida tartibga solish ta'sirini baholash **instituti joriy etildi**;
- huquqiy ekspertiza turlari **korrupsiyaga qarshi** va **gender-huquqiy ekspertizalari** orqali kengaytirildi;

- tartibga solish **gilyotina usuli** va qonun hujjatlarini **tizimlashtirish** yordamida 4000 dan ortiq o'z ahamiyatini yo'qotgan hujjatlar bekor qilindi, jumladan, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun va "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilinshi natijasida yuqoridagi natijalarga erishildi;
- Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha **maxsus qo'mitalar** tashkil etildi;
- korrupsiyaviy omillarni keltirib chiqaruvchi ortiqcha byurokratik to'siqlar bartaraf etildi, jumladan xorijga chiqish ruxsatnoma stikeri bekor qilindi va fuqarolardan 30 ga yaqin turdagi ma'lumotnomalarni talab qilish tartibi bekor bo'ldi;
- korrupsion holatlarni ko'plab keltirib chiqargan yer uchastkalarini sotish faqatgina **onlayn auksion** orqali amalga oshirilishi belgilandi;
- barcha davlat idoralarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari tashkil etildi;
- davlat idoralari va tashkilotlariga ishga qabul qilishning ochiq tanlov mexanizmi yo'lga qo'yildi;
- ochiq ma'lumotlar portali (data.gov.uz), Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz), "Ochiq byudjet" portali (openbudget.uz) kabi platformalar yaratildi va ishga tushirildi;
- amalda bo'lgan litsenziyalar va ruxsat berish hujjatlari 30 foizgacha qisqartirilib, 49 ta litsenziya, 120 ta ruxsat berish hujjati hamda 33 ta xabarnomaning yakuniy ro'yxatlari tasdiqlandi;
- O'zbekistonda xalqaro reytinglarning uslubiyotidan kelib chiqqan holda **respublika bo'ylab "Huquq ustuvorligi reytingi"** joriy qilinib, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish tizimi joriy etildi;
- amalga oshirilayotgan **islohotlarni xalqaro hamjamiyatga yetkazilishida OAVni keng jalb qilish** ishlari amalga oshirildi.

Huquq ustuvorligi indeksi

Boshqaruv
sifati
indikatori

Huquq
ustuvorligi
indeksi

Korrupsiyani
qabul qilish
indeksi

Matbuot
Erkinligi
Indeksi

Jahon
mamlakatlari
demokratiyasi
indeksi

Reyting haqida qisqacha ma'lumot

Umumiy ma'lumotlar

Huquq ustuvorligi indeksi (*Rule of law*) Amerika Qo'shma Shtatlarining "**World Justice Project**" tashkiloti tomonidan **2015-yildan** buyon har yili tuzib boriladi. Tashkilotga **Uilyam Nyukom** va **Uilyam Xabbard** tomonidan 2006-yilda Amerika advokatlar assotsiatsiyasining prezidentlik tashabbusi va **21 ta** hamkor tashkilot va shaxslar ko'magida asos solingan. "World Justice Project" tashkiloti **2009-yildan** buyon nodavlat notijorat tashkiloti sifatida faoliyat ko'rsatib keladi.

Butunjahon odil sudlov loyihasi (WJP) xalqaro nodavlat tashkiloti bo'lib, uning vazifasi "*butun dunyoda qonun ustuvorligini ta'minlashga harakat qilish*" hisoblanadi. U Huquq ustuvorligi indeksini tuzadi, bu mamlakatlarning amalda qonun ustuvorligiga qay darajada amal qilishini ko'rsatuvchi miqdoriy baholash vositasi hisoblanadi. Shuningdek, WJP loyihasining asosiy e'tibori **Jahon odil sudlov Forumi** bo'lib, u yerda dunyoning har bir burchagidan va turli sohalardagi taniqli rahbar xodimlar huquq ustuvorligi ularning sohasi va mintaqalariga qanday ta'sir qilishini ifodalash hamda tartib-qoidalarni mustahkamlash uchun birgalikdagi harakatlarni ishlab chiqish uchun birlashadigan global yig'ilishdir. WJP **2006 yilda Uilyam X. Nyukom** va **Uilyam S. Xabbard** tomonidan **Amerika advokatlar assotsiatsiyasi** prezidenti tashabbusi va **21 ta** hamkor ko'magida tashkil etilgan.

Butun dunyo mamlakatlarida axborot almashinuvi va barcha sohalar shiddat bilan o'sayotgan bugungi kunda, qonun ustuvorligini aniqlash va uning ko'lamini aniqlash juda qiyin. Unga yondashishning oddiy usuli – qonun ustuvorligi jamiyatlarga olib keladigan natijalar majmuini o'rganish bo'lib, ularning har biri huquqiy davlat murakkab konsepsiyasining bir jihatini aks ettiradi. Huquq ustuvorligi indeksi ushbu natijalarni oddiy va izchil doirada mujassamlashtirishga intiladi.

Ma'lumotlar manbalari

Qonun ustuvorligini oddiy odamlar boshidan kechirayotganidek aniq tasvirlaydigan ko'rinishni boricha taqdim etish uchun ham indeksning har bir balli Jahon odil sudlov loyihasi (*World Justice Project*) tomonidan har bir mamlakatda to'plangan ikkita asl ma'lumot manbalaridan olingan ko'p sonli vositalar yordamida hisoblanadi: **Umumiy aholi so'rovi** (*General Population Poll*) va bir qator **Malakali**

respondentlar anketalari (*Qualified Respondents' Questionnaires*). Ushbu ikki ma'lumot manbasi global darajada mavjud bo'lmagan eng so'nggi ma'lumotlarni to'playdi va dunyodagi eng keng qamrovli ma'lumotlar to'plamini tashkil qiladi.

2022-yilgi e'lon qilingan hisobotga ko'ra, O'zbekistondan Huquq ustuvorligi indeksiga ma'lumot taqdim etuvchi malakali ekspertlar etib quyidagilar ko'rsatilgan:

- Allan Pashkovskiy ("Acceptus" advokatlik firmasi);
- Azatov Jakhongir Aybekovich ("MyLawyer" advokatlik firmasi);
- Aziz Sattarov ("Acceptus" advokatlik firmasi);
- Dmitriy Mitrofanov ("Centil Law" advokatlik firmasi);
- Iskander Yakubov ("Law and Business Consulting Agency");
- Khamrayeva V. Sh. (TashPMI);
- Madina Tursunova;
- Najmiddin Jamoliddinov ("Leges Advokat" advokatlik firmasi);
- Yigitaliev Botir ("CODEX" advokatlik firmasi).

Umumiy aholi so'rovlari bir qator tegishli huquq ustuvorligi haqidagi ma'lumotlar, jumladan, aholi va hukumat orasidagi munosabatlar, byurokreatiyaga aloqador ma'lumotlar, poraxo'rlik va korrupsiyaning ko'lami va boshqa shu kabi savollar yuzasidan ma'lumotlar olinadi.

2022-yilgi indeks hisobotiga ko'ra, baholash natijalarini amalga oshirishda 140 mamlakatdan umumiy hisobda **1000 ga yaqin** fuqarolik va tijorat huquqi bo'yicha tajribaga ega bo'lgan mamlakatdagi huquqshunoslar, ekspertlar va akademiklar tomonidan to'ldirilgan yopiq savollardan iborat bo'lgan respondentlarning malakali so'rovnomalari asosida amalga oshiriladi.

Reytingdagi yangiliklar

2022-yilda huquq ustuvorligi indeksi **140 ta mamlakat** va yurisdiksiyani qamrab olgan bo'lib, **154 000 dan ortiq** uy xo'jaliklari va **3 600 dan ortiq** malakali advokat va ekspertlar ishtirokida o'tkazilgan milliy so'rovlarga asoslangan holda dunyo bo'ylab mamlakatlar va mintaqalar kesimida **huquq ustuvorligini baholaydi**. 2022-yilda reytingda avvalgi yildan (2021-yilgi) farqli o'laroq, reytingda baholanuvchi yanggi qo'shilgan **140-davlat** sifatida Gabon e'tirof etilgan.

Huquq ustuvorligi indeksining (*Rule of law*) rasmiy veb sayti: wjp@worldjusticeproject.org.

E-mail: wjp@worldjusticeproject.org.

Reyting metodologiyasi

Indikator va subindikatorlar

Huquq ustuvorligi indeksiga (*Rule of law*) ko'ra, huquq ustuvorligining universal 4 ta asosiy tamoyili mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- **Javobgarlik** - barcha qonun oldida teng va javobgarligi.
- **Faqat qonun** - qonunlar aniq, ommabop va barqaror hamda bir xilda qo'llanilishi lozim. U inson huquqlari, mulk, shartnoma va protsessual huquqlarni ta'minlashi nazarda tutiladi.
- **Ochiq hukumat** – hukumat faoliyatining to'liq shaffofligi va aniqligini belshilash.
- **Odil sudlov** – sudlov tizimining mustaqilligi mamlakatning huquq ustuvorligini o'zida aks ettiradi.

Huquq ustuvorligi indeksi (*Rule of law*) mamlakatlarda huquq ustuvorligini quyidagi **8 ta indikator** va umumiy hisobda **44 ta subindikator** kesimida baholaydi.

I. Hokimiyat organlari vakolatlarining cheklanganligi

- hukumat vakolatlarining qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan samarali nazorat qilinishi;
- hukumat vakolatlarini sud hokimiyati tomonidan samarali nazorat qilinishi;
- hukumat vakolatlarining mustaqil tekshiruvlar doirasida samarali cheklanishi;
- hokimiyat vakillarining sodir etgan huquqbuzarliklari uchun javobgarligi;
- davlat hokimiyati organlari faoliyatida jamoatchilik nazorati;
- hukumat tarkibini shakllantirish.

II. Korrupsiyaning mavjud emasligi

- Hukumat mansabdor shaxslari xizmat vakolatlaridan shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalanishlari;
- sud hokimiyati organlari xodimlari xizmat vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanishlari;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari xizmat vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanishlari;
- qonun chiqaruvchi hokimiyat vakillari xizmat vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanishlari.

III. Hokimiyat institutlarining shaffofligi (ochiqligi)

- qonunlarning va hukumat ma'lumotlarining shaffofligi;
- axborot olish huquqi;
- fuqarolarning ishtiroki;
- shikoyat berish mexanizmi.

IV. Asosiy huquqlarni himoya qilish

- diskriminatsiya, ya'ni kamsitishning mavjud emasligi;
- insonning yashash huquqi va xavfsizligi;
- ayblanuvchining huquqlari va tegishli huquqiy tartib;
- fikr va so'z erkinligi;
- din va vijdon erkinligi;
- shaxsiy hayot daxlsizligi;
- mitinglar o'tkazish va uyushmalarga birlashish erkinligi;
- asosiy mehnat huquqlari.

V. Tartib va xavfsizlik

- jinoyatchilikning yo'qligi;
- fuqarolik to'qnashuvlarining yo'qligi;
- odamlar shaxsiy haqoratlar uchun qasos olish maqsadida zo'raonlikka yo'l qo'yishlari.

VI. Qonunlarga rioya qilish

- hukumat qarorlari qo'llanilishining samaradorligi;
- hukumat qarorlarini har qanday ta'sirlarsiz samarali qo'llash;
- ma'muriy tartib-taomillarning o'z vaqtida ijro etilishi;
- ma'muriy sud ish yurituv jarayoniga tegishli hurmat bildirish;
- hukumatning sud qarorisiz va adolatli tovon pulisiz mulkni musodara qilishiga yo'l qo'ymasligi.

VII. Fuqarolik huquqi sohasida odil sudlov

- fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasining yuqoriligi;
- fuqarolik odil sudlovining diskriminatsiyadan xoliligi;
- korrupsiyasiz fuqarolik odil sudlovi;
- fuqarolik odil sudlovining bepulligi va hukumatning nomuvofiq ta'siridan xoliligi;
- fuqarolik odil sudlovi asossiz kechiktirilishlarsiz amalga oshirilishi;
- fuqarolik odil sudlovining samarali amalga oshirilishi;

- nizolarni hal etishda muqobil mexanizmlarning ishlash samaradorligi va xolisligi.

VIII. Jinoiy odil sudlov

- surishtiruv va dastlabki tergov tizimi faoliyatining samaradorligi;
- jinoyat sudi qarorlarining o'z vaqtida va samarali chiqarilishi;
- axloq tuzatish tizimining jinoyatchilik kamayishiga samarali ta'siri;
- jinoyat tizimining xolisligi;
- jinoyat tizimining korrupsiyadan xoliligi;
- jinoiy odil sudlov tizimining hukumatning nomuvofiq ta'siridan xoliligi;
- ayblanuvchining huquqlari va tegishli huquqiy tartib-taomillarning ta'minlanishi.

Baholash ball kesimida amalga oshiriladi. To'plash mumkin bo'lgan maksimal ball 1. eng yaxshi natija bu 1 ball, eng yomon natija bu 0 ball. Har bir indikator bo'yicha mamlakatlar baholanib so'ng natijalar umumlashtiriladi va yakuniy ball hisoblanadi..

Reytingda ko'rsatkichlar va O'zbekistonning o'рни

2022-yilgi reyting dinamikasi

So'nggi 5 yil davomida huquq ustuvorligining ko'rsatkichlari mamlakatlar kesimida umumiy olganda yomonlashgan. 2022-yilgi (yangilangan) reyting natijalarika ko'ra, reytingda baholanuvchi umumiy **140 ta** mamlakatlarning **85 tasida (61%)** huquq ustuvorligi darajasi pasaygan bo'lsa **54 ta** mamlakatda (**39%**) esa yaxshilangan.

Daniya, Norvegiya va Finlandiya Huquq ustuvorligi indeksida (*Rule of law*) **eng yuqori baholangan davlatlar** sifatida keltirilgan. Aksincha, **Afg'oniston, Kambodja** hamda **Venesuela** davlatlari huquq ustuvorligi **eng kam ta'minlangan** mamlakatlar sifatida baholangan.

Alohida ta'kidlash joiz, reytingning 2022-yilgi tahlillariga binoan, huquq ustuvorligiga erishish yo'lida eng samarali islohotlar amalga oshirilayotgan mamlakatlar qatorida eng yuqori ko'rsatkichlar sifatida 3,1% bilan Gonduras qayd etilgan. Gondurasdan keyingi o'rinda 2,4% ko'rsatkich bilan Kosova va 2,0% ko'rsatkich bilan Beliz mamlakati qayd etilgan.

Huquq ustuvorligi indeksi

Shuningdek, O'zbekiston ham huquq ustuvorligi o'sgan mamlakatlar qatorida qayd etilgan, bu yilgi natijalarga ko'ra o'sish o'tgan yilgiga qaraganda ancha past (bu yil 1% o'sish, o'tgan yili eng katta o'sish sifatida 4,1% bilan O'zbekiston qayd etilgan). Huquq ustuvorligidagi eng katta pasayish Sudanda kuzatildi (-7,9%). Keyingi o'rinlarga mos ravishda -7,7% ko'rsatkich bilan Myanma va -6,4% ko'rsatkich bilan Gaiti mamlakati keltirilgan.

Baholov mezonlari

Huquq ustuvorligi indeksida (*Rule of law*) mamlakatlarga berilgan baholar 3 ta yo'nalishda taqdim etiladi:

- global miqyosda;
- mintaqalar miqyosida;
- daromadlar miqyosida.

Global miqyosda

Global miqyosda 2022-yil yakunlari bo'yicha e'lon qilingan natijalarga ko'ra, umumiy hisobda 140 ta mamlakat baholangan. 140 mamlakat orasida O'zbekiston **0,50** ball bilan 78-o'rinda qayd etilgan.

Ta'kidlash joizki, umumiy ball kesimida mamlakatlarning huquq ustuvorligiga rioya qilish darajasi baholangan bo'lib unga ko'ra, 0 balldan 0,25 ball gacha natija qayd etgan mamlakatlarda huquq ustuvorligiga rioya qilish darajasi juda past, 0,26 balldan 0,50 ballgacha o'rta darajada, 0,51 balldan 0,75 ballgacha oraliqdagi natijalar o'rtachadan yuqori daraja hamda 0,76 balldan 1 ballgacha bo'lgan oraliqda natija qayd etgan mamlakatlarda huquq ustuvorligi yuqori darajada ta'minlangan deb hisoblanadi.

2022-yilgi natijalarga asosan **0,50** ball bilan O'zbekiston huquq ustuvorligi o'rta darajada ta'minlanganlik miqyosining maksimal darajasiga erishdi. Reytingda kelgusida erishiladigan har qanday yutuq, mamlakatimiz huquq ustuvorligi o'rtachadan yuqori daraja ta'minlangan davlatlar qatoridan joy olishiga asos bo'ladi.

Mintaqalar miqyosida

Huquq ustuvorligi indeksida (*Rule of law*) mamlakatlar mintaqalar miqyosida 7 ga bo'linadi va ular quyidagilar:

- Sharqiy Osiyo va Tinch okeani;
- **Sharqiy Yevropa** va **Markaziy Osiyo** (*O'zbekistonning ko'rsatkichalari aynan shu mintaqada miqyosida taqqoslanadi*);
- Shimoliy Amerika;

- Lotin Amerikasi va Karib dengizi;
- Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika;
- Janubiy Osiyo;
- Afrikaning Sahroi Kabir hududi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, O‘zbekistonga berilgan baholar **Sharqiy Yevropa** va **Markaziy Osiyo mintaqasiga** mansub davlatlar orasida o‘rganiladi. Ushbu mintaqada umumiy hisobda **14 mamlakat** keltirilgan bo‘lib ularga Gruziya, Kosova, Shimoliy Makedoniya, Qozog‘iston, Bosniya va Gertsogoviniya, Moldova, Ukraina, Serbiya, Albaniya, O‘zbekiston, Belarus Respublikasi, Qirg‘iziston, Rossiya va Turkiya mansub.

O‘zbekiston ushbu mintaqaga mansub davlatlar orasida **0,50** ball bilan 8-pog‘onada qayd etilgan. Mintaqadagi yuqori natijalar **Gruziya (0,60** ball bilan 1-o‘rin), **Kosova (0,56** ball bilan 2-o‘rin), **Shimoliy Makedoniyaga (0,53** ball bilan 3-o‘rin) tegishli bo‘lsa, eng quyi natijalar **Turkiya (0,42** ball bilan 14-o‘rin), **Rossiya (0,45** ball bilan 13-o‘rin) va **Qirg‘izistonga (0,46** ball bilan 12-o‘rin) qayd etilgan.

Daromadlar miqyosida

Huquq ustuvorligi indeksi (*Rule of law*) mamlakatlarni daromadlar miqyosida 4 guruhga bo‘lgan holda taqqoslashlar amalga oshiradi va ular quyidagilar:

- quyi qiymatdagi daromad;
- o‘rtadan past qiymatdagi daromad;
- o‘rtadan yuqori qiymatdagi daromad;
- yuqori qiymatdagi daromad.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston o‘rtadan past qiymatdagi daromadga mansub mamlakatlar qatorida keltirilgan bo‘lib ushbu guruhda umumiy hisobda 35 ta mamlakat kiritilgan.

O‘zbekiston daromadlar miqyosida o‘zi o‘rin olgan guruhda 35 ta davlat orasida 10-o‘rinda qayd etilgan.

Avval ta’kidlanganidek, O‘zbekiston Huquq ustuvorligi indeksida (*Rule of law*) indikatorlar kesimida quyidagi natijalarni qayd etgan.

- Hukumat vakolatlarining cheklanganligi indikatorida – 0,38 ball bilan 140 ta mamlakat orasida 114-o‘rinda baholangan.
- Korrupsiyaning mavjud emasligi indikatorida – 0,47 ball bilan 140 ta mamlakat orasida 66-o‘rinda baholangan.
- Hukumat ochiqqligi indikatorida - 0,36 ball bilan 140 ta mamlakat orasida 122-o‘rinda baholangan.

- Fundamental huquqlar indikatorida - 0,45 ball bilan 140 ta mamlakat orasida 107-o'ringda baholangan.
- Tartib va xavfsizlik indikatorida - 0,90 ball bilan 140 ta mamlakat orasida 16-o'ringda baholangan.
- Tartibga solish indikatorida - 0,45 ball bilan 140 ta mamlakat orasida 99-o'ringda baholangan.
- Fuqarolik odil sudlovi indikatorida - 0,50 ball bilan 140 ta mamlakat orasida 75-o'ringda baholangan.
- Jinoiy odil sudlov indikatorida - 0,46 ball bilan 140 ta mamlakat orasida 65-o'ringda baholangan.

So'nggi 5 yilgi O'zbekistonning reytingdagi ko'rsatkichlari va MDH mamlakatlari bilan natijalar taqqoslamasi

2017-2018-yillar

Huquq ustuvorligi indeksining (Rule of law index) 2017-2018-yilgi (faqat shu yillari natijalar 2 yil uchun 1 ta hisobot e'lon qilingan) natijalariga ko'ra, mamlakatlarning reytingda egallagan o'rinlari va O'zbekistonning qayd etgan natijalari quyidagicha baholangan. Ta'kidlash lozimki, o'sha yili reytingda umumiy hisobda 113 ta mamlakat baholangan.

Reytingning eng yuqori qismida **Daniya** 0,89 ball bilan 1-o'ringda qayd etilgan bo'lsa, uning ortidan mos ravishda **Norvegiya** 2-o'ringda (0,89 ball ko'rsatkich bilan) va **Finlandiya** 3-o'ringda (0,87 ball ko'rsatkich bilan) qayd etilgan.

Eng quyi ko'rsatkichlar sifatida 0,34 ball ko'rsatkich bilan 111-o'ringda **Afg'oniston**, 0,32 ball bilan **Kombodja** 112-o'ringda va 0,29 ball bilan **Venesuela** eng quyi 113-pog'onada qayd etilgan.

O'zbekistonning 2017-2018-yillardagi ko'rsatkichlari quyidagicha qayd etilgan:

- barcha 113 ta mamlakat orasida 0,46 ball ko'rsatkich bilan 91-o'rinni egallagan;
- mintaqalar miqyosida (Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo) a'zo 13 ta davlat orasida O'zbekiston 0,46 ball bilan 12-pog'onada qayd etilgan. Ushbu mintaqada o'sha yili 0,61 ball bilan Gruziya 1-o'ringda qayd etilgan bo'lsa, eng so'nggi 13-o'rin 0,42 ball bilan Turkiyaga tegishli bo'lgan;
- daromadlar kesimida O'zbekiston **o'rtadan past daromadli davlatlar** qatorida 30 ta mamlakat orasida 18-o'ringda qayd etilgan.

Ta'kidlash joizki, ushbu davr oralig'ida daromadlar kesimida eng yuqori natija sifatida **Daniya 0,89** ball bilan 1-o'ringda qayd etilgan bo'lsa, aksincha eng quyida "Lotin Amerikasi va Karib dengizi havzasi" mintaqasida baholanuvchi **Venesuela 0,29** ball bilan qayd etilgan.

2019-yil

Huquq ustuvorligi indeksining (*Rule of law index*) 2019-yilgi natijalariga ko'ra, mamlakatlarning reytingda egallagan o'rinlari va O'zbekistonning qayd etgan natijalari quyidagicha baholangan. Ta'kidlash lozimki, o'sha yili reytingda umumiy hisobda 126 ta mamlakat baholangan.

Reytingning eng yuqori qismida **Daniya 0,90** ball bilan turgan bo'lsa, uning ortidan mos ravishda **Norvegiya** 2-o'ringda (**0,89** ball ko'rsatkich bilan) va **Finlandiya** 3-o'ringda (**0,87** ball ko'rsatkich bilan) qayd etilgan.

Eng quyi ko'rsatkichlar sifatida **0,33** ball ko'rsatkich bilan 124-o'ringda **Kongo Demokratik Respublikasi**, **0,32** ball bilan Kombodja 125-o'ringda va **0,28** ball bilan **Venesuela** eng quyi 126-pog'onada qayd etilgan.

O'zbekistonning 2019-yildagi ko'rsatkichlari quyidagicha qayd etilgan:

- barcha 126 ta mamlakatlar orasida **0,46** ball ko'rsatkich bilan 94-o'rinni egallagan;
- mintaqalar miqyosida (Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo) a'zo 13 ta davlat orasida **O'zbekiston 0,46** ball bilan quyi, 12-pog'onada qayd etilgan. Ushbu mintaqada o'sha yili **0,61** ball bilan **Gruziya** 1-o'ringda qayd etilgan bo'lsa, eng so'nggi 13-o'rin **0,43** ball bilan Turkiyaga tegishli bo'lgan;
- daromadlar kesimida O'zbekiston o'rtadan past daromadli davlatlar qatorida 30 ta mamlakat orasida 17-o'ringda qayd etilgan.

Ta'kidlash joizki, ushbu davr oralig'ida daromadlar kesimida eng yuqori natija sifatida Daniya **0,90** ball bilan 1-o'ringda qayd etilgan bo'lsa, aksincha eng quyida "Lotin Amerikasi va Karib dengizi havzasi" mintaqasida baholanuvchi Venesuela **0,28** ball bilan qayd etilgan.

2020-yil

Huquq ustuvorligi indeksining (*Rule of law index*) 2020-yilgi natijalariga ko'ra, mamlakatlarning reytingda egallagan o'rinlari va O'zbekistonning qayd etgan natijalari quyidagicha baholangan. Ta'kidlash lozimki, o'sha yili reytingda umumiy hisobda 128 ta mamlakat baholangan.

Reytingning eng yuqori qismida **Daniya 0,90** ball bilan qayd etilgan bo'lsa, uning ortidan mos ravishda **Norvegiya** 2-o'ringda (**0,89** ball ko'rsatkich bilan) va **Finlandiya** 3-o'ringda (**0,87** ball ko'rsatkich bilan) qayd etilgan.

Eng quyi ko'rsatkichlar sifatida 0,34 ball ko'rsatkich bilan 126-o'rinda **Kongo** Demokratik Respublikasi, 0,33 ball bilan **Kombodja** 127-o'rinda va 0,27 ball bilan **Venesuela** eng quyi 128-pog'onada qayd etilgan.

O'zbekistonning 2020-yildagi ko'rsatkichlari quyidagicha qayd etilgan:

- barcha 128 ta mamlakatlar orasida 0,47 ball ko'rsatkich bilan 92-o'rinni egallagan;
- mintaqalar miqyosida (Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo) a'zo 14 ta davlat orasida O'zbekiston 0,47 ball bilan quyi, 12-pog'onada qayd etilgan. Ushbu mintaqada o'sha yili 0,60 ball bilan **Gruziya** 1-o'rinda qayd etilgan bo'lsa, 0,43 ball bilan eng so'nggi 14-o'rin **Turkiyaga** tegishli bo'lgan;
- daromadlar kesimida O'zbekiston o'rtadan past daromadli davlatlar qatorida 30 ta mamlakat orasida 14-o'rinda qayd etilgan.

It is worth noting that in this period, **Denmark** ranked first with 0.90 points as the highest result in the income segment, while Venezuela ranked the lowest in the «Latin America and the Caribbean» region with 0.27 points.

2021-yil

Huquq ustuvorligi indeksining (*Rule of law index*) 2021-yilgi natijalariga ko'ra, mamlakatlarning reytingda egallagan o'rinlari va O'zbekistonning qayd etgan natijalari quyidagicha baholangan. Ta'kidlash lozimki, o'sha yili reytingda umumiy hisobda 139 ta mamlakat baholangan.

Reytingning **eng yuqori qismida Daniya** 0,90 ball bilan qayd etilgan bo'lsa, uning ortidan mos ravishda **Norvegiya** 2-o'rinda (0,90 ball ko'rsatkich bilan) va **Finlandiya** 3-o'rinda (0,88 ball ko'rsatkich bilan) qayd etilgan.

Eng quyi ko'rsatkichlar sifatida 0,35 ball ko'rsatkich bilan 137-o'rinda **Kongo** Demokratik Respublikasi, 0,32 ball bilan **Kombodja** 138-o'rinda va 0,27 ball bilan **Venesuela** eng quyi 139-pog'onada qayd etilgan.

O'zbekistonning 2021-yildagi ko'rsatkichlari quyidagicha qayd etilgan:

- barcha 139 ta mamlakatlar orasida 0,49 ball ko'rsatkich bilan 85-o'rinni egallagan;
- mintaqalar miqyosida (Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo) a'zo 14 ta davlat orasida O'zbekiston 0,49 ball bilan 10-pog'onada qayd etilgan. Ushbu mintaqada o'sha yili 0,61 ball bilan **Gruziya** 1-o'rinda qayd etilgan bo'lsa, eng so'nggi 14-o'rin 0,42 ball bilan **Turkiyaga** tegishli bo'lgan;

- daromadlar kesimida O‘zbekiston o‘rtadan past daromadli davlatlar qatorida 30 ta mamlakat orasida 11-o‘rinda qayd etilgan.

Ta’kidlash joizki, ushbu davr oralig‘ida daromadlar kesimida eng yuqori natija sifatida **Daniya 0,90** ball bilan 1-o‘rinda qayd etilgan bo‘lsa, aksincha eng quyida “Lotin Amerikasi va Karib dengizi havzasi” mintaqasida baholanuvchi **Venesuela 0,27** ball bilan qayd etilgan.

O‘zbekiston va MDH mamlakatlarning reytingdagi tendensiyasi

Nº	Davlat	2017-2018 yillar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
1.	Ozarbayjon	–	–	–	–	–
2.	Armaniston	–	–	–	–	–
3.	Belarus	65-o‘rin	66-o‘rin	68-o‘rin	97-o‘rin	99-o‘rin
4.	Qozog‘iston	64-o‘rin	65-o‘rin	62-o‘rin	66-o‘rin	65-o‘rin
5.	Qirg‘iziston	82-o‘rin	85-o‘rin	84-o‘rin	99-o‘rin	100-o‘rin
6.	Maldova	78-o‘rin	83-o‘rin	82-o‘rin	73-o‘rin	68-o‘rin
7.	Rossiya	89-o‘rin	88-o‘rin	94-o‘rin	101-o‘rin	107-o‘rin
8.	Tojikiston	–	–	–	–	–
9.	O‘zbekiston	91-o‘rin	94-o‘rin	92-o‘rin	85-o‘rin	78-o‘rin
10.	Turkmaniston	–	–	–	–	–
11.	Ukraina	77-o‘rin	77-o‘rin	72-o‘rin	74-o‘rin	76-o‘rin
Indeksda baholangan mamlakatlar soni		113 ta	126 ta	128 ta	139 ta	140 ta

2022-yilgi natijalar yuzasidan eng yuqori o‘rinlardagi davlatlar va ularning tajribalari

TOP 10 davlatlar

1. Daniya – 0,90 ball
2. Norvegiya – 0,89 ball
3. Finlandiya – 0,87 ball
4. Shvetsiya – 0,86 ball
5. Niderlandiya – 0,83 ball
6. Germaniya – 0,83 ball
7. Yangi Zelandiya – 0,83 ball
8. Lyuksemburg – 0,83 ball
9. Estoniya – 0,82 ball
10. Irlandiya – 0,81 ball.

Huquq ustuvorligiga erishishda Daniya tajribasi

Daniya va Skandinaviya qonunlari kontinental Yevropa huquqiy tizimlari bilan bir nechta umumiy jihatlarga ega. Shunga qaramay, shimoliy mamlakatlarning huquqiy tizimlari o'ziga xos tarzda rivojlangan. Daniya huquqiy tizimi alohida xususiyatlariga ega Odatda, kontinental huquqiy tizimlar bilan mustahkam aloqalarga qaramay, Daniya o'zining alohida huquqiy tizimini tashkil qiladi.

Parlamentda qonun qabul qilishda Daniya Parlamenti (*Folketinget*) bitta palatali parlamentdan tashkil topgan. Parlament a'zolari umumiy hisobda 179 nafar saylangan deputatlardan iborat bo'lib, ulardan ikkitasi Farer orollaridan, ikkitasi Grenlandiyadan saylanadi. Navbatdan tashqari o'tkaziladigan saylovlardan tashqari, Parlament saylovlari har to'rt yilda bir marta bo'lib o'tadi. Qonun loyihalari bir parlament yilida uch marta taqdim etilishi va qabul qilinishi mumkin.

Daniyadagi asosiy huquqiy manbalar sifatida konstitutsiyaviy qonunlar, mavjud yozma qonunchilik hujjatlari, tartibga soluvchi qonunlar, pretsedent va odat huquqlarini ko'rsatish mumkin. Huquqiy hujjatlarda madaniyat an'analari (*forholdets natur*) ham e'tiborga olinsa-da, ko'p holatlarda bu narsa bir oz munozarali kechadi. Shunga qaramay, madaniy an'analar Daniya qonunchiligiga o'z ta'sirini turli jihatlarda jiddiy ta'sirini o'tkazadi. Bundan tashqari, Parlament Ombudsmanining bayonotlari ma'muriy huquq sohasida alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Daniya huquqi tizimli va yozma huquqning keng to'plamlari bilan alohida e'tiborli sanaladi. Xususiy huquqda bir qator individual huquqiy hujjatlar va ba'zi sohalarda asosan **pretsedent** va **odatlarga asoslangan yozilmagan qonunlar ustunlik** qiladi.

Jinoyat huquqi jinoyat kodeksi bilan, ma'muriy huquq esa davlat boshqaruvining ikkita umumiy huquqiy akti "**Forvaltningsloven**" va "**Offentlighedsloven**" va moddiy sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarning murakkab majmuasi bilan tartibga solinadi.

Daniya sud tizimi ikki bosqichli prinsipga asoslanadi, ya'ni ishda ishtirok etuvchi tomonlar odatda bitta sudning ajrimi ustidan yuqori instantsiyaga shikoyat qilish imkoniyatiga ega. Keyin yuqori sud oldingi sud bilan bir xil xulosaga kelishi (ajrimni o'zgartirmasligi) yoki ish noto'g'ri ko'rilgan taqdirda, ajrimni o'zgartirishi mumkin.

Oddiy sudlardan tashqari, arbitraj ham juda keng tarqalagan bo'lib unda asosan qurilish, tadbirkorlik, biznes va shu kabi huquq sohaslariga oid ishlar ko'riladi.

Aksariyat ishlar okrug sudlari darajasida yuqori sudlardan biriga murojaat qilish imkoniyati bilan boshlanadi. Daniyada 24 ta okrug sudlari mavjud. Qoidaga ko'ra, barcha sud ishlari okrug sudlaridan birida boshlanadi. Maxsus holatlarda, agar ish umumiy manfaatlar tamoyillari bilan bog'liq bo'lsa, okrug sudi ishini yuqori sudga yuborishi mumkin.

Daniya huquqi **shartnomalar erkinligining** umumiy tamoyiliga asoslanadi. Biroq huquqiy tizim tijorat muhitini, ayniqsa, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish nuqtayi nazaridan himoya qiluvchi keng ko'lamli qoidalarni o'z ichiga oladi.

Chet elliklar, qoida tariqasida, Daniyani "**o'zlarining vatani**" deb hisoblamaguncha, Daniyada uy-joy sotib olishdan qonun bilan cheklanadilar. Amaliy nuqtayi nazardan, bu mazkur davlatning Adliya vazirligidan Daniyada doimiy yashashingizni tasdiqlovchi ruxsatnomani olishni anglatadi. Daniyada ishlayotgan Yevropa Ittifoqi fuqarolari ushbu qoidalardan ozod qilingan. Ba'zi hududlarda, ayniqsa, yozgi dam olish uylarini sotib olayotganda, xorijiy mulkka nisbatan ba'zi maxsus cheklovlar mavjud. Bu, ayniqsa, qirg'oqbo'yi hududlarida keng tarqalgan.

Daniya ko'chmas mulkni sotib olayotganda iste'molchilarni himoya qilishning yuqori darajasiga ega, qurilish inspektorlarining to'liq hisoboti va sotuvchidan yashirin nosozliklar uchun sug'urtaning yarmini to'lash tizimi majburiy hisoblanadi. Bundan tashqari, **Daniya** ko'chmas mulkni sotib olish bilan bog'liq tranzaksiya xarajatlari ancha past davlatlar qatoriga kiradi.

Huquq ustuvorligiga erishishda Finlandiya tajribasi

Finlandiya demokratiyasi huquq ustuvorligi asosida qurilgan bo'lib, huquq ustuvorligi va asosiy huquqlarni hurmat qilish **Finlandiya Konstitutsiyasida** mustahkamlangan asosiy tamoyillardandir. Finlandiya ham, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlat sifatida va xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlari bo'yicha ushbu tamoyillarga tayanadi.

Huquqiy davlat deganda barcha davlat hokimiyati organlarining qonun bilan belgilangan chegaralar doirasida ish olib borishi, demokratiya va asosiy huquqlarga hurmat ko'rsatilishi, mustaqil va xolis sudlar nazorati ostida bo'lishi tushuniladi. Finlandiyada huquq ustuvorligini qonun hujjatlarini ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish adolatli, samarali va ochiq va yaxshi boshqaruv tamoyillariga mos kelishida ham ko'rish mumkin.

Finlandiyada Adliya vazirligi huquq ustuvorligi va demokratiya uchun mas'ul davlat tashkiloti hisoblanadi.

Finlandiya tajribasiga ko'ra, Adliya vazirligi quyidagi faoliyat yo'nalishlariga mas'ul hisoblanadi:

- demokratiya va asosiy huquqlarni hurmat qilishni targ'ib qilish;
- huquqiy himoyani amalga oshirish va jinoiy javobgarlikni amalga oshirishga yordam berish;
- o'zining ma'muriy tarmog'idagi ishtirokchilar va idoralar uchun qulay ish muhitini kafolatlash;
- faoliyat sohasiga oid qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish;
- hukumat tarkibida qonun loyihasini ishlab chiqish.

Demokratiyaga erishish yo'lida Finlandiya tajribasiga asosan, Adliya vazirligi Bosh vazir hukumati tomonidan belgilab berilgan demokratiya va ishtirokni targ'ib qilish bo'yicha ko'plab chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan **2025-yilgi "Milliy demokratiya dasturi"** uchun mas'uldir. Maqsad – fuqarolik jamiyati va hokimiyat o'rtasidagi muloqotni rivojlantirish. Dasturning maqsadlaridan biri ham inson huquqlari va demokratiya ta'limi va yoshlarning faolligini oshirishdan iborat.

Hukumatning 2021–2023-yillarda **korrupsiyaga qarshi kurashish** bo'yicha faoliyati "**Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi**"ga asoslanadi. Strategiya huquq ustuvorligi va samarali boshqaruvni qo'llab-quvvatlaydi va mustahkamlaydi.

Adliya vazirligi profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqadi, xalqaro hamkorlik uchun javob beradi va korrupsiyaga qarshi milliy tarmoqni muvofiqlashtiradi. Korrupsiyaga qarshi kurash Adliya vazirligidan tashqari yana bir qancha subyektlar tomonidan ham olib boriladi. Masalan, Moliya vazirligi davlat xizmatining axloqiy me'yorlarini muvofiqlashtirish uchun javobgardir. Finlandiya Milliy audit idorasi markaziy hukumat moliyasini tekshiradi va fiskal siyosat qoidalari hamda partiyalar va saylovlarni moliyalashtirish qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi. **Korrupsiyani tekshirish Milliy tergov byurosining vakolatiga kiradi.**

Qonun qabul qilish tartibi odatda, Finlandiya hukumati Finlandiya parlamentiga qonun loyihasini taklif qiladi. Hujjatga o'zgartirishlar kiritilib, parlament tomonidan ma'qullangandan so'ng, akt **Finlandiya Prezidentiga rozilik uchun taqdim etiladi.** Prezident hujjatni imzolaganidan keyin u qonunga aylanadi.

Huquq ustuvorligiga erishishda Gruziya tajribasi

Gruziyada inqilobdan keyingi hukumat sud tuzilmalarini tiklash bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirgan, jumladan, sud hokimiyati mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan konstitutsiyaga o'zgartirishlar va asosan, xalqaro standartlarga mos deb topilgan yangi **Jinoyat-protsessual kodeksi** qabul qilingan.

Inqilobdan keyingi davrda mamlakatda barcha sohalarda juda tez islohotlar va o'zgarishlar o'z aksini topdi. O'sha davrlarda mamlakat bo'ylab keng tarqalgan korrupsiya, zaif davlat institutlari va deyarli qulashi mumkin bo'lgan iqtisodiyot bilan ajralib turardi. Soliq yig'ish YIMning atigi 14 foizini tashkil etardi, bu Gruziyani xalqaro yordamga qattiq tobe qilib qo'ydi. Rasmiy ishsizlik darajasi 24 foizdan ko'proqni tashkil etdi va aholining yarmidan ko'pi qashshoqlik chegarasida yashadi. O'sha yillari Gruziya "**Transparency International**" tashkiloti reytingi tomonidan 10 balldan 1,8 ball bilan baholanib dunyodagi eng korrupsiyalashgan davlatlardan biri sifatida e'tirof etildi.

Gruziya hukumati **korrupsiya** va **byurokratiya** mamlakat bo'ylab saraton kasalligi kabi har bir sohaga chuqur o'rnashgani sezdi va bunga qarshi bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Jumladan:

- Gruziya **konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlarga ko'ra, prezidentning vakolatlari kengaytirildi**, xususan vazirlarni lavomizga tayinlash va ozod etish, qonunchilik tashabbusi va uni bekor qilish hamda Oliy Sud Kengashi raisligida sud hokimiyatiga rahbarlik qilish va muvofiqlashtirish vakolatlarini sezilarli darajada kuchaytiruvchi tizim joriy qilindi;
- sud tizimidagi korrupsiya darajasini keskin pasaytirish yo'lida Oliy sud tizimiga yangi, yosh, bilim va tajribali kadrlarni jalb qilish yo'lida, Gruziyaning sudlov sohasida ancha yillar fidokorona va salmoqli xizmat qilgan sudyalarga yil oxirigacha iste'foga chiqish **uchun umrbod pensiya taklif qilindi**;
- bir vaqtning o'zida Oliy sud sudyalarining maoshlari **400 foizga**, quyi sudyalar maoshi **300 foizga** oshirildi. Inqilobdan keyingi yillarda sud byudjeti 3 baravar oshdi, yomon jihozlangan sud binolari ta'mirlandi, mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun yangi texnologik uskunalar o'rnatildi;
- oldingi hokimiyat davridagi korrupsiyalashgan va noto'g'ri tizimda o'z faoliyatini olib borgan nodavlat tashkilot bo'lib hisoblangan sudyalarni tayyorlash markazi o'rnida davlat tomonidan va ko'p jihatdan xalqaro manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan **Oliy sud maktabi joriy etildi**;

- sud-huquq tizimini yanada samarali qilish yuzasidan Gruziya jinoyat qonunchiligini isloh qilish bo'yicha **Davlat strategiyasi** va **Harakatlar rejasi** qabul qilinib, unga ko'ra, jinoyat qonunchiligi, xususan, jinoyat kodeksi va jinoyat protsessual kodeksidagi mavjud, ammo amaliyotda uchramaydigan va qo'llanilmaydigan, qolaversa, korrupsion holatlarni ketirib chiqaruvchi boshqa bir normaga havola qilinuvchi normalar olib tashlandi. Har bir modda yoki badda keltirilgan normaning taqiqlovchi yoki ruxsat etuvchi qoidalari aniq o'sha modda yoki bandning o'zida ko'rsatib o'tilishi qoidasi joriy etldi. Bu esa, o'z navbatida, bir normaning boshqa bir norma bilan tartibga solinishi va uni o'z manfaatlarini yo'lida talqin qilib qonun buzilish holatlarining oldini olishga erishildi hamda fuqarolarga beg'araz malakali yuridik yordam ko'rsatish institutlari mamlakat bo'ylab keng miqyosda joriy etildi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyat rivojlanishiga olib keldi;
- prokuraturani Adliya vazirligidan ajratgan holda o'z faoliyatini yuritish sohasida **Gruziya parlamenti "Prokuratura to'g'risida"**gi qonunga o'zgartirishlar kiritdi va shu bilan Adliya vazirining jinoyat ishlariga aralashish imkoniyati cheklandi.
- sud-huquq tizimining shaffofligini yanada oshirish yuzasidan yangi hukumat **2013-yil may** oyida **"Umumiy sudlar to'g'risida"**gi qonunga sud jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida yoritish imkonini beruvchi o'zgartirishlar kiritdi. **"Freedom House"** tashkilotining **2014-yilgi** ma'lumotiga asosan, yuqorida ta'kidlangan 2 ta qonun qabul qilingan yildan 1 yil o'tib mamlakatda prokuratura organlari tomonidan qamoqqa olish holatlari soni 25 foizga kamaygan. Bu prokuraturaning sudlarga avvalgiga qaraganda kamroq ta'sir o'tkazganligidan dalolat beradi.

O'zbekistonning Huquq ustuvorligi indeksining 2022-yilgi natijalarining yaxshilanishiga sabab bo'lgan omillar

Hukumat vakolatlarining cheklanganligi indikatorida davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimining joriy etilishi, shuningdek 2022-2023-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari dasturini ishlab chiqishni muvofiqlashtiruvchi respublika komissiyasini hamda davlat hokimiyati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruhning tuzilganligi mamlakatimizning mazkur sohada olib borilayotgan izchil islohotlar olib borilayotganligidan dalolat beradi.

Qonunlarga rioya qilish indikatorida qonunosti hujjatlarining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, tartibga solishning nojo'ya ta'sirlarining oldini olish, ma'muriy tartib-taomillarga rioya qilish, mulk huquqining daxlsizligini ta'minlash kabi sohalarda amalga oshirilayotgan ishlar ijobiy baholangan;

Fuqarolik odil sudlov indikatorida sud qarorlarining ijro etilishi, aholining sudlar orqali o'z huquqlarini amalga oshirish imkoniyatidan foydalanishi, sudlarning davlat organlari ta'siridan xolisigi, sudlar tomonidan protsessual muddatlarga rioya qilinishi va sud qarorlarining lozim darajada ijro etilishi va aholining sud qarorlari xolisligidan qanoatlanishi kabi sohalarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yuqoridagi reytinglardagi o'rnimizni oshirishga faol xizmat qilmoqda.

Fundamental huquqlar indikatorida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qiynoqlar va asossiz ushlab turish holatlari, fikr va so'z erkinligidan foydalangan fuqarolar va jurnalistlarga nisbatan bosim o'tkazish holatlari va shaxsiy hayotga o'zboshimchalik bilan aralashish kabi holatlarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanganligi va asosiy mehnat huquqlarining (ish haqi, ish vaqti, majburiy mehnat va boshqalar) ta'minlanganligi ko'rsatkichlarimizning o'sishiga sabab bo'lgan asosiy omillardan hisoblanadi.

Korruptsiyaning mavjud emasligi indikatorida davlat xaridlari sohasida ochiqlik va raqobat muhiti yaxshilangani, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsat berish tartib-taomillari turlari qisqartirilganligi hamda soddalashtirilganligi, bu sohada shaffoflik oshgani, korruptsiyaning oldini olish bo'yicha qabul qilingan kompleks choralar mazkur indikatorida davlatimiz nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.

Jinoiy odil sudlov indikatorida surishtiruv va tergov tizimiga yangi texnologiyalarning joriy etilgani, jabrlanuvchining ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, odil sudlov tizimining xolis ishlayotgani, jinoiy odil sudlov tizimida korruptsiya darajasi pasaygani, qiynoq qo'llash holatlarining kamaygani ijobiy baholangan.

Hukumat ochiqligi indikatorida mahalliy davlat hokimiyati organlarining ochiqligi va mahalliy ijro organlari tomonidan fuqarolarning axborot olish huquqi ta'minlanganligi, fuqarolarning mahalliy darajadagi qarorlarni qabul qilish jarayonidagi ishtiroki, mansabdor shaxslar xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish mexanizmlaridan samarali foydalanilish kabi sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar katta ahamiyat kasb etadi.

Huquq ustuvorligi indeksi

Tartib va xavfsizlik indikatorida mamlakatimiz so'nggi besh yildan beri mintaqaviy miqiyosda 1-o'rinni egallagan bo'lib, bu o'z navbatida, hududlarda jinoyatchilik darajasi va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohalarida amalga oshiriyotgan ishlarning samaradorligidan dalolat beradi.

Korrupsiyani qabul qilish indeksi

Boshqaruv
sifati
indikatorlari

Huquq
ustuvorligi
indeksi

Korrupsiyani
qabul qilish
indeksi

Matbuot
Erkinligi
Indeksi

Jahon
mamlakatlari
demokratiyasi
indeksi

Reyting haqida qisqacha ma'lumot

Umumiy ma'lumotlar

Korrupsiyani qabul qilish indeksi "**Transparency International**" xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan 1995-yildan boshlab har yili dunyoning barcha mamlakatlarida davlat sektorida korrupsiya darajasini aniqlash bo'yicha ekspertlar va tadbirkorlar baholari asosida o'tkaziladi.

"**Transparency International**" korrupsiyaga qarshi kurashuvchi va butun dunyo bo'ylab korrupsiya darajasini o'rganuvchi nodavlat xalqaro tashkilotdir. "**Transparency International**" **1993-yilda Berlinda Jahon bankining** Sharqiy Afrika bo'yicha sobiq direktori **Piter Eygen** tomonidan tashkil etilgan.

Indeksning aniqlanishidan maqsad baholanadigan mamlakatlarning siyosiy va huquqiy tizimlarining korrupsiyaga nisbatan sezuvchanlik darajasini sifat va miqdoriy ma'lumotlar asosida aniqlashdan iborat.

Ma'lumot manbalari

Indeksda foydalanilgan manbalar turlicha baholansa ham, bu indeks (CPI) hukumat muammolari va biznes muhitini tahlil qilishga ixtisoslashgan **12 mustaqil tashkilot** tomonidan taqdim etilgan **13 ta** manbaga asoslanadi. Uni tuzishda foydalanilgan ma'lumotlar manbalari so'nggi ikki yil davomida chop etilgan ma'lumotlarga asoslanadi. Bu indeks faqat mamlakatlar/hududlar guruhlari uchun ballarni taqdim etadigan va ekspertlar yordamida davlat sektoridagi korrupsiya haqidagi tasavvurlarni o'lchaydigan manbalarni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlar manbalarining to'liq tavsifi, respondentlarning turlari va so'rovlar davomida berilgan maxsus savollar uchun mazkur indeks manbalari ro'yxatiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Korrupsiyani qabul qilish indeksining 2021-yil uchun hisoboti quyidagi **13 ta** manbadagi ma'lumotlarga asoslanadi:

- Afrika taraqqiyot bankining 2020-yilgi milliy siyosatlar va muassasalarni baholashi;
- Bertelsman jamg'armasining 2020-yilgi barqaror boshqaruv ko'rsatkichlari;
- Bertelsman jamg'armasining 2021-yilgi Transformatsiya indeksi;
- "Economist Intelligence Unit" kompaniyasining 2021-yilgi Mamlakatlar xavf-xatarlari xizmatlari;
- "Freedom House" tashkilotining O'tish davridagi mamlakatlar 2021-yilgi hisobotlari;

- "Global Insight" tashkilotining 2020-yilgi Xavf-xatarlar va iqtisodiy unumdorlik ko'rsatkichlari;
- Menejmentni rivojlantirish xalqaro institutining (IMD) Jahondagi raqobatbardoshlikni o'rganish markazi, Jahondagi raqobatbardoshlik bo'yicha yillik byulleten, Rahbar xodimlar o'rtasida 2021-yilgi so'rov;
- Iqtisodiy va siyosiy xavflarni baholash agentligi, 2021-yil uchun Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar tahlili;
- "Siyosiy xavf-xatarlar xizmatlari" (PRS) guruhining 2021-yilgi Mamlakatlardagi xavf-xatarlar bo'yicha xalqaro qo'llanmasi;
- Jahon bankining 2020-yilgi milliy siyosatlar va muassasalarni baholashi;
- Jahon iqtisodiy forumining Rahbar xodimlar o'rtasida 2020-yilgi so'rovi;
- "World Justice Project" (WJP) tashkilotining 2020-yilgi Qonun ustuvorligi indeksi bo'yicha ekspertlar so'rovi;
- 2021-yilgi "Varieties of Democracy Project" (V-Dem) loyihasi, 11-versiyasi.

1. Afrika taraqqiyot bankining 2020-yilgi milliy siyosatlar va muassasalarni baholashi

Mutaxassislardan quyidagilarni baholash so'raladi: *"Davlat sektorida oshkoralik, hisobdorlik va korrupsiya"* (ushbu mezon ijro hokimiyati vakillarining potensial javobgarlik darajasini baholaydi, pul mablag'laridan foydalanish uchun saylovchilar, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlarining vakolatlari, ularning harakatlarining vositalari va natijalari; shuningdek, jamoatchilikdan talab qilinadigan javobgarligi darajasi, resurslardan foydalanish uchun ijro hokimiyati organlari xodimlari, ma'muriy qarorlar va natijalar shular jumlasidandir).

Uch jihatning har biri alohida baholanadi:

- a. boshqaruvchining nazorat organlari oldidagi javobgarligi va davlat xizmatchilarining o'z vazifalarini bajarishdagi javobgarligi;
- b. fuqarolik jamiyatining ijtimoiy va siyosiy masalalarga oid axborotdan foydalanish imkoniyati;
- c. moddiy manfaatlar olishdan manfaatdor shaxslarning tor doirasi tomonidan davlat faoliyatiga ta'siri.

2. Bertelsman jamg'armasining 2020-yilgi barqaror boshqaruv ko'rsatkichlari

Mutaxassislardan quyidagilarni baholash so'raladi:

- *“Korrupsiyaning oldini olishda davlat mansabdor shaxslariga qay darajada to’sqinlik qilinadi?”*
- *“Mansabdor shaxslar o’z mansabini shaxsiy manfaatlar yo’lida suiiste’mol qilganmi?”*

Bu savollar davlat va jamiyatning mansabdor shaxslar poraxo’rliklarining qanday oldini olishini va siyosatchilar, mansabdor shaxslarning daxlsizligini ta’minlash uchun mo’ljallangan vositalardan foydalangan holda:

- davlat mablag’larining sarflanishi auditi;
- siyosiy partiyalarni moliyalashtirishni tartibga solish;
- fuqarolar va matbuotdan axborot olish;
- mansabdor shaxslarning javobgarligi (mol-mulk deklaratsiyasi, qonun hujjatlari manfaatlar to’qnashuvi, xulq-atvor kodeksi);
- davlat xaridlari tizimining shaffofligi.

Shunday qilib, savollar korrupsion faoliyatni samarali ta’qib qilish kabi masalalarni qamrab olgan holda tuzilgan.

3. Bertelsman jamg’armasining 2021-yilgi o’zgarishlar indeksi

Mutaxassislardan quyidagilarni baholash so’raladi: *“Davlat mansabdor shaxslari qay darajada mansabini suiiste’mol qilishadi, qay tarzda jinoiy javobgarlikka tortiladi yoki jazolanadi?”*.

4. “Economist Intelligence Unit” kompaniyasining 2021-yilgi Mamlakatlar xavf-xatarlari xizmatlari

Mutaxassislardan quyidagilarni baholash so’raladi:

- byudjet mablag’larini taqsimlashni tartibga soluvchi aniq qoidalar va javobgarliklar bormi?
- davlat mablag’lari vazirlar/davlat xizmatchilari tomonidan shaxsiy ravishda yoki siyosiy partiyaning maqsadlari yo’lida isrof qilinyaptimi?
- hech kim hisob bermaydigan maxsus fondlar bormi?
- davlat resurslaridan noto’g’ri foydalanish keng tarqalganmi?
- kasbiy davlat bandlik xizmati bormi yoki bevosita hukumat tomonidan tayinlanadigan mansabdor shaxslar soni yuqorimi?
- davlat mablag’larini boshqarishni tekshiradigan mustaqil organ bormi?
- mustaqil sud tizimi mavjudmi, ular vazirlar/davlat xizmatchilarining vakolatlarini suiiste’mol qilganliklari uchun javobgarlikga tortib, qonuniy choralar ko’rish huquqiga egami?

5. "Freedom House" tashkilotining O'tish davridagi mamlakatlar 2021-yilgi hisobotlari

"Freedom House" ekspertlariga quyidagi kabi bir qator yo'naltiruvchi masalalarni o'rganish taklif qilinadi:

- mamlakat iqtisodiyoti hukumatning ortiqcha aralashuvidan xolimi?
- hukumat korrupsiya ehtimolini oshiruvchi byurokratik qoidalar, ro'yxatga olish talablari va boshqa nazorat tartibsizliklaridan xolimi?
- davlat amaldorlarining iqtisodiyotdagi ishtirokida jiddiy cheklovlar mavjudmi?
- moliyaviy ma'lumotlarni oshkor qilish va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun tegishli qonunchilik mavjudmi?
- hukumat bo'sh ish o'rinlari va shartnomalarni e'lon qiladimi?
- hukumat mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilari o'rtasidagi korrupsiyaning oldini olish, tekshirish yoki jinoiy javobgarlikka tortish uchun samarali qonunchilik yoki ma'muriy jarayonlarga, xususan, amaldorning siyosiy raqiblariga nisbatan adolatli jarayonlarga egami?
- xabar beruvchilar, korrupsiyaga qarshi faollar, tergovchilar va jurnalistlar poraxo'rlik va korrupsiya holatlari haqida xabar berishda ularning xavfsizligini ta'minlashga mo'ljallangan huquqiy himoyalardan foydalanadimi?
- korrupsiyaga oid da'volarni oshkor qilish holatlari ommaviy axborot vositalarida keng va har tomonlama yoritilmoqdam?
- aholida rasmiy korrupsiyaga nisbatan murosasizlik darajasi yuqorimi?

6. "Global Insight" tashkilotining 2020-yilgi Xavf-xatarlar va iqtisodiy unumdorlik ko'rsatkichlari

Mutaxassislardan quyidagilarni baholash so'raladi: *"Tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar/kompaniyalar duchor bo'ladigan poraxo'rlik yoki boshqa korrupsion harakatlar xavfi – yirik shartnoma kafolatlaridan tortib kichik mahsulotni import/eksport qilish yoki oddiy hujjatlarni rasmiylashtirishga ruxsat berish kabi holatlar o'sha mamlakatda biznes yuritish jarayonlariga tahdid soladimi yoki kompaniyani qonuniy yoki tartibga soluvchi jazolar hamda obro'siga putur yetkazish xavfiga qo'yadimi?"*

7. Menejmentni rivojlantirish xalqaro institutining (IMD) Jahondagi raqobatbardoshlikni o'rganish markazi, Jahondagi raqobatbardoshlik bo'yicha yillik byulleten, Rahbar xodimlar o'rtasida 2021-yilgi so'rov

Respondentlar quyidagi savolga javob berishdi: *"Poraxo'rlik va korrupsiya: mavjud yoki yo'q"*.

8. Iqtisodiy va siyosiy xavflarni baholash agentligi: 2021-yil uchun Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar tahlili

Respondentlar quyidagi savolga javob berishdi: *“Siz ishlayotgan mamlakatdagi korrupsiya bilan bog‘liq vaziyatni qanday baholaysiz?”*.

9. “Siyosiy xavf-xatarlar xizmatlari” (PRS) guruhining 2021-yilgi Mamlakatlardagi xavf-xatarlar bo‘yicha xalqaro qo‘llanmasi.

Respondentlar quyidagi savolga javob berishdi: *“Korrupsiyaning tadbirkorlik subyektlari bevosita duch keladigan eng keng tarqalgan shakli bu import va eksport litsenziyalari, valyuta cheklovlari, soliqlarni hisoblash, politsiya himoyasi yoki kreditlar bilan bog‘liq maxsus to‘lovlar va pora talab qilish shaklidagi moliyaviy korrupsiyadir. Bu ko‘rsatkich uchun eng muhimi, haddan tashqari himoyalani, qarindosh-urug‘chilik, ish o‘rinlarini saqlab qolish, moddiy boyliklar almashish, siyosiy partiyalarni yashirin moliyalashtirish va siyosat va biznes o‘rtasidagi shubhali yaqin aloqalar yoki ehtimoliy korrupsiyaning bor-yo‘qligi”*.

10. Jahon bankining 2020-yilgi milliy siyosatlar va muassasalarni baholashi

Mutaxassislardan quyidagilarni baholash so‘raladi: *“Davlat sektorida oshkoralik, hisobdorlik va korrupsiya” (ushbu mezon ijro hokimiyati vakillarining elektorat, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati organlari oldidagi mablag‘lardan foydalanish va ularning harakatlari natijalari bo‘yicha salohiyatli javobgarlik darajasini baholaydi. Milliy va mahalliy hukumatlar ularning ahamiyatiga qarab baholanishi kerak)*.

11. Jahon iqtisodiy forumining Rahbar xodimlar o‘rtasida 2020-yilgi so‘rovi

Respondentlar quyidagi savolga javob berishdi:

- Mamlakatingizda kompaniyalar qo‘shimcha hujjatsiz to‘lovlarni qay maromda amalga oshiradilar yoki quyidagilar sababli pora berish holatlari qanday darajada ekanligi:
 - a. import va eksport;
 - b. kommunal xizmatlar;
 - c. yillik soliq to‘lovlari;
 - d. davlat shartnomalari va litsenziyalarini berish;
 - e. sud qarorlarini chiqarishda ustunlikka erishish.

12. “World Justice Project” (WJP) tashkilotining 2020-yilgi Qonun ustuvorligi indeksi bo‘yicha ekspertlar so‘rovi

Mutaxassislar davlat xizmatchilari o‘z mansab mavqeidan qay darajada shaxsiy manfaat yo‘lida foydalanayotgani haqida jami 53 ta savol beriladi. Bu masalalar turli davlat sektorlariga, jumladan sog‘liqni saqlash tizimiga, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga, politsiya va sudlarga tegishli.

Shaxsiy savollar to‘rtta kichik sub-indeksda umumlashtirilgan:

2.1. Ijro etuvchi hokimiyat organlarining davlat xizmatchilari davlat lavozimidan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanmaydi.

2.2. Adliya organlarining davlat xizmatchilari davlat mansabidan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanmaydi.

2.3. Politsiya va harbiy sohada ishlayotgan davlat xizmatchilari davlat lavozimidan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanmaydi.

2.4. Qonun chiqaruvchi hokimiyatning davlat xizmatchilari davlat lavozimidan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanmaydi.

Korrupsiyani qabul qilish indeksini hisoblash uchun faqat ekspertlar tomonidan taqdim etilgan natijalardan foydalanilgan. To‘rtta kichik indeks bo‘yicha so‘rov natijalari bitta o‘rtacha qiymatga tushiriladi.

13. 2021-yilgi “Varieties of Democracy Project” (V-Dem) loyihasi, 11-versiyasi

Savol: Siyosiy korrupsiya qanchalik keng tarqalgan? (*Demokratiyaning xilma-xilligi loyihasining (V-DEM) korrupsiya indeksining pastdan yuqoriga yo‘nalishi (boshqa V-DEM o‘zgaruvchilardan farqli o‘laroq, pastdan yuqori darajadagi demokratiyaga qarab tartiblanadi) bo‘lib, ushbu korrupsiya indeksi siyosiy sohaning turli sohalari va darajalarini qamrab oluvchi, ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati korrupsiyasini ajratib ko‘rsatadigan olti turdagi korrupsiya ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi. Ijro hokimiyatidagi ko‘rsatkichlar ham **poraxo‘rlik maqsadidagi korrupsiya ko‘rsatkichlari** va **o‘zlashtirish maqsadidagi korrupsiya ko‘rsatkichlariga** bo‘linadi. Nihoyat, ijro etuvchi hokimiyatning **eng yuqori pog‘onasidagi korrupsiya** (hukumat/vazirlar mahkamasi darajasi) va umuman **davlat sektoridagi korrupsiya** o‘rtasida farqlanadi. Shunday qilib, bu ko‘rsatkichlar korrupsiyaning bir necha xil turlarini qamrab oladi: ham ichki, ham hukumat; ham pora, ham o‘g‘irlik; qonunlarni qabul qilish jarayonlarini o‘zgartirishga qaratilgan korrupsiya ham, ularning ijrosiga ta‘sir qiluvchi korrupsiya ham shular jumlasidan).*

Natijalarning qisqacha mazmuni: bu indeks quyidagi ko'rsatkichlarning o'rtacha arifmetik qiymati sifatida hisoblanadi:

- a. davlat sektoridagi korrupsiya indeksi;
- b. ijro etuvchi hokimiyat organlari o'rtasidagi korrupsiya ko'rsatkichi;
- c. qonunchilik sohasidagi korrupsiya ko'rsatkichi;
- d. sud tizimidagi korrupsiya ko'rsatkichi.

Boshqacha qilib aytganda, ushbu to'rt xil hukumat sohalari indeksning yakuniy natijalariga erishish uchun teng ravishda tortiladi.

Indeksni yaxshi boshqaruvning qimmatli ko'rsatkichiga aylantiradigan to'rtta xususiyat mavjud:

Umuman olganda, korrupsiya deganda maqsadli ravishda yashiringan va odatda faqat janjal, tergov yoki jinoiy ta'qiblar orqali aniqlanadigan noqonuniy faoliyat tushuniladi. Olimlar, fuqarolik jamiyati va hukumatlar tadqiqotchilari muayyan sohalarda korrupsiyani obyektiv o'lchash vositalarini ishlab chiqishda ma'lum yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, hozirda milliy korrupsiyaning obyektiv darajasini har tomonlama aks ettira oladigan ko'rsatkich yo'q. Indeks tuzilgan manbalar va tadqiqotlar o'z respondentlarini savollariga javob berishga taklif qiladi.

Puxta ishlab chiqilgan, o'ylangan va tanlangan anketalar tegishli manfaatdor tomonlarning mazkur sohada nuqtayi nazarini ifodalaydi, bu esa obyektiv choralar, masalan, Global korrupsiya barometri reytingida aks ettirilgan fuqarolarning poraxo'rlik bilan bog'liq holatlari bilan deyarli bir xil bo'ladi.

Qaysi mamlakatlar/hududlar Indeksiga kiritilgan va nima uchun?

Mamlakat yoki hudud reytingga kiritilishi uchun mamlakat kamida uchta Indeks (CPI) ma'lumotlar manbalariga kiritilgan bo'lishi kerak. Reytingda biron-bir davlatning yo'qligi faqat ma'lumot yetishmasligi bilan bog'liq va bunday mamlakatda korrupsiya yo'qligi dalolat bermaydi. 2012 yildan beri bu indeks (CPI) dunyoning 180 ga yaqin mamlakatini qamrab oldi.

Mamlakat/hududning reytingdagi o'rni va natijada olingan ball o'rtasida qanday farq bor?

- davlat lavozimiga tayinlanishning tabiati: xizmati yoki qarindosh-urug'chilik asosidagi tayinlash;
- korrupsioner mansabdor shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishning samarali vositalari;
- davlat amaldorlari uchun tegishli moliyaviy oshkoralik va manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunlarning mavjudligi;
- soliq bo'yicha firibgarlik.

Korrupsiyani qabul qilish indeksi

Mamlakat/hududning davlat sektoridagi korrupsiyaning 0 dan 100 gacha bo'lgan shkala bo'yicha qabul qilingan darajasini aks ettiradi, bunda **0** davlat sektorida korrupsiyaning qabul qilingan darajasi **juda yuqori** va **100 juda past** ekanligini bildiradi.

Davlatning bu indeksdagi pozitsiyasi uning indeksga kiritilgan boshqa mamlakatlar/hududlarga nisbatan o'rnini ko'rsatadi. Pozitsiyalardagi o'zgarishlar bu indeksga kiritilgan mamlakatlar sonining o'zgarishi, shuningdek, boshqa mamlakatlarning reytingini pasaytirish yoki yangilash natijasida sodir bo'lishi mumkin.

Bu indeksda korrupsiyaning qanday ko'rinishlari aks ettirilgan?

Korrupsiyani qabul qilish indeksi manbalaridan olingan ma'lumotlar korrupsiyaning quyidagi jihatlarini aks ettiradi (ro'yxat ma'lumotlarni to'plash uchun ishlatiladigan maxsus savollarga asoslanadi).

Reyting metodologiyasi

Indikator va baholash

Indeksni hisoblash uslubi professor **Endryu Gelman** (*Kolumbiya universiteti statistika va siyosiy fanlar kafedresi professori*) va doktor **Pero Stanig** (institut ilmiy xodimi) tomonidan indeks kompilyatsiyasining muqobil yondashuvlarini o'rganishga asoslangan.

Indeks **0** (*eng yuqori*) va **100** (*eng past*) shkala bo'yicha baholanadi.

Korrupsiyaning qabul qilish darajasi, masalan, har bir mamlakatda 1 dan 7 gacha yoki 1 dan 10 gacha bo'lgan shkalalardan ko'ra ko'proq aniqlik bilan belgilanadi.

Indeks mamlakatlar/hududlar bo'yicha ballarni belgilaydi va ularni tadbirkorlar va ekspertlarning mamlakat davlat sektoridagi korrupsiya darajasi haqidagi tasavvuriga ko'ra tartiblaydi. Bu turli nufuzli tashkilotlar tomonidan tuzilgan korrupsiyaga oid 13 ta tadqiqot va baholarni jamlagan kompozit indeks bo'lib, u dunyodagi eng keng tarqalgan korrupsiya o'lchovidir.

Indeks uslubiyoti davlat va xususiy sektordagi korrupsiya darajasini aks ettiradi va ekspert baholari ma'lumotlarini, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning ma'lumotlarini, shuningdek ishbilarmon doiralar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlarni o'z ichiga oladi.

Pora berish darajasi, byudjet mablag'larini talon-taroj qilish, davlat idorasidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish, jamoat xizmatida muayyan shaxslarga ustunlik berish, moddiy manfaatdor shaxslarning

tor doirasi tomonidan davlat hokimiyatini tortib olish darajasi baholanadi.

Xuddi shu tarzda, hukumatning yaxlitligi, korrupsiyada aybdorlarni ta'qib qilishning samarali mexanizmining mavjudligi, belgilangan tartiblarning murakkabligi va byurokratik holati, moliyaviy ma'lumotlarning oshkor etilishi, manfaatlar to'qnashuvi va axborotdan foydalanishning oldini olishning huquqiy asoslari va jurnalistlar, sudyalalar va tergovchilarning huquqiy himoyasi kabi masalalar ham shular jumlasidandir.

Mazkur indeks 1995-yilda butun dunyo bo'ylab davlat sektoridagi korrupsiyaning taxmin qilinadigan darajasini o'lchash uchun tarkibiy ko'rsatkich sifatida ishlab chiqilgan bo'lsa, so'nggi 20 yil ichida indeksni tuzish manbalarini va metodikasini tuzatish va takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borildi. 2012-yilda bu indeks metodologiyasiga muhim o'zgarishlar kiritildi, bu ko'rsatkichlarni vaqt o'tishi bilan taqqoslash imkoni yaratildi. 2016-yilgacha 2012-yildagi umumiy parametrlar asosiy qiymatlarning manbai hisoblangan.

2016-yilda mazkur indeks Demokratiyaning xilma-xilligi loyihasidan (V-DEM) ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va 2016-yil uchun yetishmayotgan qiymatlar yana aniqlandi. Shunga qaramay, 2012 va 2016-yillardagi umumiy parametrlarni taqqoslash statistik jihatdan ahamiyatsiz farqni ko'rsatdi. Bu dastlabki qiymatlar manbasining o'zgarishi vaqt o'tishi bilan ma'lumotlarning taqqoslanishiga ta'sir ko'rsatmasligidan dalolat beradi. Natijada, 2012-yil dastlabki ma'lumotlar uchun joriy boshlanish nuqtasi bo'lib qolmoqda.

Eng yuqori ko'rsatkichli mamlakatlar

2021-yil uchun e'lon qilingan hisobotda eng yaxshi davlatlar **Daniya, Finlyandiya va Yangi Zelandiya** bo'lib, har birida **88** ballidan **Norvegiya, Singapur, Shvetsiya, Shveytsariya, Niderlandiya, Luksemburg va Germaniya** top o'ntalikni to'ldirishdi.

Janubiy Sudan, Suriya va Somali indeksning quyi pog'onasida qolmoqda. **Venesuela, Yaman, Shimoliy Koreya, Afg'oniston, Liviya, Ekvatorial Gvineya va Turkmanistonni** o'z ichiga olgan qurolli to'qnashuv yoki avtoritarizmni boshdan kechirayotgan mamlakatlar eng past ko'rsatkichlarga ega.

Umuman olganda, bu indeks shuni ko'rsatadiki, so'nggi o'n yil ichida korrupsiya ustidan nazorat **86 foiz** mamlakatlarda to'xtab qolgan yoki yomonlashgan. Unga ko'ra **25 ta** davlatda vaziyat yaxshilangan, **23 ta** davlatda vaziyat yomonlashgan va **131 ta** davlatda vaziyat o'zgarishsiz qolgan.

O'zbekiston Respublikasi **2017-2021-yillar** oralig'ida korrupsiyaviy vaziyat yaxshilanayotgan davlatlar qatoridan **+6** daraja qayd etgan. Shuningdek, O'zbekiston bu borada eng izchil rivojlanayotgan davlatlardan biridir. Xususan, mazkur indeksda **2012-yilda** atigi **17** ball to'plagan bo'lsa, bu yil **28** ballga ko'tarilgan.

100 balldan atigi **36** ball to'plagan o'rtacha ball bilan **Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo** mintaqasi hamon ikkinchi eng past ko'rsatkichli mintaqaga bo'lib turibdi. Markaziy Osiyoda hukumatlar COVID-19 pandemiyasidan huquq va javobgarlikni cheklash uchun bahona sifatida foydalangan.

2021-yilda **Gruziya 45-o'rin** (2020-yilda 45-o'rin), **Armaniston 60-o'rin** (2020-yilda 77-o'rin), **Belarus 82-o'rin** (2020-yilda 63-o'rin), **Qozog'iston 102-o'rin** (2020-yilda 92-o'rin), **Moldova 105-o'rin** (2020-yilda 115-o'rin), **Ukraina 112-o'rin** (2020-yilda 117-o'rin), **Qirg'iziston 144-o'rin** (2020-yilda 124-o'rin), **Ozarbajjon 128-o'rin** (2020-yilda 129-o'rin), **Rossiya 136-o'rin** (2020-yilda 129-o'rin), **O'zbekiston 140-o'rin** (2020-yilda 146-o'rin), **Tojikiston 150-o'rin** (2020-yilda 149-o'rin) va **Turkmaniston 169-o'rinni** (2020-yilda 165-o'rin) egallagan.

Shu bilan birga, **Gruziya** o'tgan yildagi bilan bir xil ball to'plagan, **Armaniston, Moldova, Ukraina, Ozarbajjon, O'zbekiston** reytingdagi o'rinlari yaxshilangan, **Belarus, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston** bu indeksdagi oldingi o'rinlarini **yo'qotishgan**.

Mintaqada **2012-yildan** indeksda **Armaniston +47** pog'onaga (105-o'rindan 58-o'ringa), **Belarus +41** pog'onaga (123-o'rindan 82-o'ringacha), **O'zbekiston +30** pog'onaga (170-o'rindan 130-o'ringa), **Qozog'iston +29** pog'onaga (133-o'rindan 102-o'ringa), **Ukraina +22** pog'onaga (144-o'rindan 122-o'ringa), **Ozarbajjon +11** pog'ona (139-o'rindan 128-o'ringa), **Qirg'iziston +10** pog'onaga (154-o'rindan 144-o'ringa), **Tojikiston +7** pog'onaga (157-o'rindan 150-o'ringa), **Gruziya +6** pog'onaga (51-o'rindan 45-o'ringa), **Turkmaniston +1** pog'onaga (170-o'rindan 169-o'ringa) o'sish qayd etgan bo'lsa, **Moldova -3** pog'onaga (94-o'rindan 105-o'ringa), **Rossiya -3** pog'onaga (133-o'rindan 136-o'ringa) pasayishni qayd etgan.

Mintaqada **Gruziya 45** ball bilan yetakchilik qilayotgan bo'lsa, **Armaniston** reytingda 2020-yilga nisbatan **+17** pog'ona ortib, yuqori yutuqqa erishgan. **Qozog'iston** 102-o'rinni egallab, **Markaziy Osiyo** davlatlari o'rtasida yetakchilik qilmoqda.

Reytingda ko'rsatkichlar va unda O'zbekistonning o'rni

Baholov mezonlari

2021-yil uchun Korrupsiyani qabul qilish indeksida O'zbekiston **180 ta** davlatlar orasida **28** ball bilan 146-o'rinni egallab, **2020-yilga** nisbatan **+2** ball qo'shilgan holda, 146-o'rindan **6** pog'ona yuqoriga ko'tarildi.

"Freedom House" 2021-yil uchun e'lon qilingan O'tish davridagi mamlakatlar reytingida O'zbekiston 2020-yilda **1,14** ball olib, 2019-yildagi **1,11** ballga nisbatan **+0,3** ball ko'proq olgan.

O'zbekiston 2020-yil uchun e'lon qilingan indeksda **26** ball (+1) to'plab, 153-o'rindan 148-o'ringa (**+7**) ko'tarilgan.

Mintaqadagi quyi pog'onalarida **Qirg'iziston** (144-o'rin), **Tojikiston** (150-o'rin) va **Turkmaniston** (169-o'rin) davlatlari joylashgan.

O'zbekiston bu indeksda **Sharqiy Yevropa** va **Markaziy Osiyo** mintaqasiga kiritilgan bo'lib, mazkur mintaqa indeksda maksimal **100** balldan o'rtacha **28** ball to'plagan.

Ijobiy natijalar

Indeks uslubiyotiga asosan, O'zbekistonning ko'rsatkichlari **7 ta** manbaadan **3 tasi** bo'yicha, ya'ni "Freedom House" (**+1**), "World Justice Project" (**+7**) va "Varieties of Democracy" (**+3**) reytinglarida oldingi baholariga nisbatan qo'shimcha ballar qo'shilganligi hisobiga o'rtacha **+1** ballga oshgan.

Shu bilan birga, bevosita indeks manbalari tahlil qilinganda, quyidagilarni ko'rish mumkin.

"Freedom House" tashkilotining **O'tish davridagi mamlakatlar 2020-yilgi** hisobotlari yillik hisobotida 2020-yil O'zbekiston **1,14** ball to'pladi. 2019-yili bu ko'rsatkich **1,11** ballni tashkil etgan edi.

Mazkur reyting metodologiyasiga ko'ra, mamlakatlar 1 dan 7 ballgacha baholanadi, bunda **1 – eng past** va **7 – eng yuqori** darajadagi demokratik jarayonlarni aks ettirar edi. Mazkur reytinglarning o'rtacha bahosi har bir davlatning demokratiya holatini ko'rsatib turadi. Demokratiya foizi – bu demokratiya bahosini **0** dan **100** gacha shkalaga aylantirilishidir.

"World Justice Project" 2021-yil uchun e'lon qilingan **Huquq ustuvorligi indeksida** O'zbekiston 2021-yilda **0,49** ball olib, 2020-yildagi **0,47** ballga nisbatan **+0,2** ball ko'proq olib, **139 ta** davlat orasida 85-o'rinni (2020-yilda 92-o'rin) egallagan.

Shu jumladan, Huquq ustuvorligi indeksining tarkibiy indikatorlari bo'yicha quyidagicha bo'lgan:

- davlat hokimiyatining cheklanganligi – 0,38 ball / 114-o'rin (+7);
- korrupsiyaning mavjud emasligi – 0,47 ball /66-o'rin (+4);
- hukumatning ochiqqligi – 0,36 ball /122-o'rin (+1);
- asosiy huquqlar – 0,45 ball /107-o'rin (+2);
- tartib va xavfsizlik – 0,90 ball /16-o'rin;
- normativ-huquqiy ta'minlanganlik – 0,45 ball /99-o'rin (+6);
- fuqarolik sudlovi – 0,50 ball /75-o'rin (+3);
- jinoiy sudlov – 0,46 ball /65-o'rin (+2).

Korrupsiyaning mavjud emasligi indeksi bo'yicha quyidagilar qamrab olingan:

- ijro hokimiyatidagi korrupsiya – 0,43 ball (72-o'rin);
- sud hokimiyatidagi korrupsiya – 0,47 ball (93-o'rin);
- huquqni muhofaza qilish organlari/harbiy kuchlardagi korrupsiya – 0,44 ball (104-o'rin);
- qonun chiqaruvchi organlardagi korrupsiya – 0,54 ball (22-o'rin).

Yaxshilash imkoniyatlari

“Transparency international” tashkilotining 2021-yilda e'lon qilingan hisobotida nazorat institutlariga kuchli siyosiy ta'sir, sud hokimiyatining mustaqil emasligi va so'z erkinligi borasidagi cheklovlar **Sharqiy Yevropa** va **Markaziy Osiyo** mintaqasidagi ko'plab mamlakatlarda hokimiyatning haddan tashqari kuchayishiga olib kelgani ta'kidlanadi.

Hisobotdagi ekspertlarning fikricha, agar siyosiy rahbarlar ijtimoiy manfaatlarga ustuvor ahamiyat berib, shaffoflik namunasini ko'rsatsalar, korrupsiyaga qarshi samarali kurashish mumkin.

Mintaqa davlatlariga sohaga ajratilgan byudjet mablag'larining sarflanishini oshkorlashtirish, ulardan foydalanish va taqsimlashga qaratilgan tegishli shartnomalarni tuzish tartiblarini takomillashtirish hamda mukammal audit tizimini joriy etish tavsiya etilgan.

COVID-19 pandemiyasi mavjud nazorat va shaffoflik tizimlar zaifligini ko'rsatib berdi. Aholining eng ehtiyojmand guruhlariga resurslardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash va ularni korrupsioner amaldorlar tomonidan o'zlashtirilishlardan himoya qilish uchun korrupsiyaga qarshi kurash va nazorat organlari o'z vazifalarini bajarish uchun yetarli mablag'larga va mustaqillikka ega bo'lishlari kerak.

Ko'pgina hukumatlar davlat xaridlariga bo'lgan talablarini keskin kamaytirdilar. Shoshma-shosharlik bilan qabul qilingan qarorlar va shaffof bo'lmagan davlat xaridlari korrupsiyaviy holatlar keskin ko'payishi va davlat resurslarini o'zlashtirish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Shuning uchun davlat xaridlarining ochiqligi va shaffofligi ta'minlashi zarur.

Xarajat va resurslarni taqsimlash to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish va ular bilan tanishish imkoniyatini ta'minlash, xarajatlar va resurslarni taqsimlash bo'yicha ma'lumotlarning e'lon qilinishi, favqulodda vaziyatlarda siyosatning adolatli va inklyuziv javoblari uchun juda muhimdir. Shuning uchun hukumatlar aholiga aniq, dolzarb va yetarli ma'lumotlarni yetkazish va olishlarini ta'minlashlari kerak.

Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlariga berilgan tavsialari

Mintaqada COVID-19 pandemiyasiga qarshi kurash choralarining shaffof bo'lmaganligi tiyib turish mexanizmlarini qo'llash, hamda halollik tizimini mustahkamlash muhimligidan dalolat berilishi hisobotda ta'kidlangan.

"Transparency International" Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlariga korrupsiya BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) bajarish uchun eng katta to'siq bo'lishini, va sog'liqni saqlash tizimidagi muammolar murakkablashishi va keskinlashishiga olib kelishini inobatga olishlari shartligi ta'kidlanadi.

Tizimga ajratilgan byudjet mablag'lari maqsadli sarflanishi to'g'risidagi ma'lumotlar shaffofligi ta'minlamasligi korrupsiya xavfini keskin oshishi va favqulodda vaziyatlar murakkablashishiga olib kelishiga urg'u beriladi.

Shundan kelib chiqib, mintaqa davlatlariga sohaga ajratilgan byudjet mablag'larining sarflanishini oshkoralashtirish, ulardan foydalanish va taqsimlashga qaratilgan tegishli shartnomalarni tuzish tartiblarini takomillashtirish hamda mukammal audit tizimini joriy etish tavsiya etiladi.

Rasmiy sahifa: <https://www.transparency.org/en/cpi/2020/index/nzl>.

Xalqaro tajriba

Korrupsiyaga qarshi kurash sohasida Gruziya tajribasi

2003-yilda **Korrupsiyani qabul qilish indeksida Gruziya** 176 davlat orasida 127-o'rinni qayd etgan bo'lsa, "Transparency International" tashkiloti tomonidan 2021-yil uchun e'lon qilingan hisobotiga ko'ra Gruziya 180 davlat orasida 45-o'rinni (*Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida 1-o'rin*) egallagan. So'nggi besh yil mobaynida Gruziya davlati bu borada yaxshi o'sish qayd etib, **Italiya, Ruminiya, Gretsiya, Chexiya va Slovakiya** kabi davlatlardan yuqori ko'rsatkichlarga erishishga muvaffaq bo'lgan.

So'nggi o'n yil ichida Gruziya korrupsiyaga qarshi kurashishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Bu muvaffaqiyatga ko'p jihatdan samarali huquqni qo'llash va ma'muriy soddalashtirish sabab bo'ldi. Bu esa, davlat boshqaruvidagi mayda korrupsiyaga barham berish imkonini berdi. Eng oddiy vazifalar hal etilganidan so'ng, Gruziya korrupsiyaga qarshi kurashning navbatdagi bosqichida va boshqa ko'plab davlatlar singari hokimiyatning yuqori bo'g'inidagi korrupsiya va murakkab korrupsion sxemalar bilan bog'liq yangi muammoga duch keldi. Mazkur muammolarga yechim topishda asosiy rolni **Korrupsiyaga qarshi kurashning yangi strategiyasi** va **Korrupsiyaga qarshi kurashish kengashining** ahamiyati katta.

Gruziyada **Korrupsiyaga qarshi kurashning yangi strategiyasi** va uning **chora-tadbirlar rejasi** avvalgi siyosat natijalarini baholash asosida ishlab chiqilgan bo'lib, korrupsiya sohasidagi ko'plab hisobot va tadqiqotlarni hisobga olgan, shuningdek, keng jamoatchilik maslahatlarini o'z ichiga olgan. Mazkur strategiya puxta ishlab chiqilgan, aniq maqsad va vazifalarni belgilab beruvchi korrupsiyaga qarshi kurash siyosati hujjatidir. Harakat rejasida aniq chora-tadbirlar, ularni amalga oshirish muddatlari, mas'ul organlar va byudjetlar ko'rsatilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish kengashi dastlab 2008-yilda Prezident farmoni bilan tashkil etilgan bo'lib, 2010-yilda Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha kengashga oid qoidalar Gruziyaning **"Davlat xizmatidagi manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya to'g'risida"**gi qonuniga kiritilgan. 2013-yil oktabr oyida bo'lib o'tgan prezidentlik saylovlaridan so'ng "Davlat sektoridagi manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya to'g'risida"gi qonunga kiritilgan o'zgartirishlar asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish kengashi Gruziya hukumati oldida hisobdor bo'ldi. Keyinchalik **Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kengashning nizomi** va **tarkibi** mamlakat hukumatining 2013-yil

30-dekabrda 390-son qarori bilan tasdiqlangan va Kengash o'zining **yillik faoliyati to'g'risidagi hisobotni Hukumatga taqdim etishi shart** etib belgilangan.

Hukumat va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarining ishtiroki korrupsiyaga qarshi siyosatni ishlab chiqishda asosiy omil hisoblanadi, shuning uchun 2012-2017 yillarda Korrupsiyaga qarshi kurash kengashi tarkibi yangi davlat organlari, mahalliy, xalqaro tashkilotlar va korxonalar tomonidan bir necha bor kengaytirildi. Ayni paytda mazkur Kengash 55 a'zoga ega bo'lib, ulardan 17 nafari mahalliy va xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari, xalqaro tashkilotlar, donorlar va biznes assotsiatsiyalari vakillaridir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kengashning funksiyalariga mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish, Harakatlar rejasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasini yangilash, shuningdek, ularning bajarilishini nazorat qilish, xalqaro tashkilotlar oldida hisobot berishni nazorat qilish, tegishli qonunchilik faoliyatini boshlash va tavsiyalar tayyorlash kiradi. Kengash a'zolari parlament, ijro va sud hokimiyatlari, xalqaro va mahalliy tashkilotlar, shuningdek, tadbirkorlik sohasi vakillaridan iborat. Kengashga **Gruziya adliya vaziri boshchilik qiladi**.

Korrupsiyaga qarshi kurash sohasida Armaniston tajribasi

So'nggi 15 yil ichida Armaniston Respublikasi hukumati korrupsiyaga qarshi kurashni o'zining asosiy faoliyatidan biri deb e'lon qildi. Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini amalga oshirishning eng muhim shartlaridan biri "Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi" va ularni amalga oshirish rejalarini shakllantirish edi. Dastlabki "2003-2007-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi" bu ba'zi huquqiy va institutsional o'zgarishlarga olib kelgan bo'lsa-da, unda xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, aniq amaliy chora-tadbirlarga va ularning bajarilishini monitoring qilishga yetarlicha e'tibor qaratmagan.

"Transparency International" tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra mamlakatlar reytingida 2003-yilda (korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasining boshlanishi) Armaniston 78-o'rinni (133 mamlakat ichida) va 2007-yilda (korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasining oxiri) 99-o'rinni egallagan (180 mamlakat ichida).

Shu bilan birga, Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar orasida Armaniston bu vaqt ichida eng yaxshi natijalarni ko'rsatdi. Taqqoslash uchun, **Rossiya** 2003-yilda 86-o'rinni egallagan bo'lsa, 2007-yilda 143-o'ringa tushib ketgan. Boshqa davlatlar (**Qirg'iziston, Belarus va Qozog'iston**) **2007-yilda** 150-o'ringa tushib ketgan. Dastlabki

“2003-2007-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi” kutilgan natijalarni bermadi, shu munosabat bilan 2009-yil 8-oktabrda “2009–2012-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi” va uni amalga oshirish rejasi tasdiqlandi. Strategiyada belgilangan ustuvor vazifa korrupsiyaning umumiy darajasini sezilarli darajada kamaytirish edi. Mazkur vazifani amalga oshirish chora-tadbirlari dasturida yangi institutsional tuzilmalarni yaratish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, korrupsiya muammosiga jamoatchilikni jalb qilish va korrupsiyaga qarshi kurash choralari monitoringini olib borish nazarda tutilgan edi. Kutilayotgan asosiy natijalar quyidagilardan iborat edi:

- korrupsiyaning tizimli xususiyatiga barham berish;
- korrupsiya tarqalishini sezilarli darajada cheklash;
- fuqarolarga ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini oshirish;
- ijtimoiy adolat idrokini yaxshilash;
- siyosiy tizim barqarorligini mustahkamlash;
- mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish.

“2009-2012 yillarda korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasi”ni amalga oshirish jarayonida erishilgan asosiy ijobiy natijalardan ajratish mumkin:

- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish holatlarini aniqlash samaradorligini oshirish;
- soliq sohasida soliq jinoyatlarini tergov qilish jarayonida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash usullari va tartiblari joriy etildi. Shu bilan birga, korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlar va huquqbuzarliklar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish imkoniyati paydo bo‘ldi. Elektron soliq xizmatlari turlari kengaydi;
- bojxona sohasida boshqaruv samaradorligi va bojxona xizmatining javobgarligi oshdi. Bojxona xizmati faoliyatini baholash tizimi joriy etildi;
- ta‘lim sohasida oliy ta‘lim muassasalariga kirish imtihonlarining yagona tizimi joriy etildi. Ta‘lim va fan vazirining buyrug‘i bilan tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yillik dasturlar ishlab chiqildi;
- sud-huquq tizimida “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi qonun doirasida sudyalarning manfaatlarini to‘qnashuvi masalasi tartibga solindi;
- huquqni muhofaza qilish organlari tizimida davlat xizmatlari ko‘rsatishda aholining davlat reestri ma‘lumotlaridan foydalanish tizimi takomillashtirildi. Ichki ishlar organlari xodimlarining xatti-

harakatlari ustidan shikoyat qilish tartib-taomillarining qulayligi yaxshilandi;

- ijro hokimiyati tizimida “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi qonun doirasida Armaniston Respublikasining yuqori mansabdor shaxslarining odob-axloq qoidalari tartibga solinadigan bo‘ldi. Yuqori mansabdor shaxslarning mulkini deklaratsiyalash tizimi yo‘lga qo‘yilib, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlashda nazorat tizimi joriy etildi.

Armaniston Respublikasida korrupsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirish uchun markazlashtirilmagan korrupsiyaga qarshi tizim joriy etildi, uning doirasida siyosatni ishlab chiqish va nazorat qilish funksiyalari, korrupsiyani aniqlash va jinoiy javobgarlikka tortish funksiyalaridan ajratilgan. Korrupsiyaga qarshi strategiyaning chora-tadbirlari dasturida idoraviy (tarmoqli) dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish siyosati joriy etildi, biroq bu davlat organlari tomonidan to‘liq qo‘llab-quvvatlanmadi.

Ta’kidlash joizki, **“2009-2012-yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi”**ning faoliyat dasturida belgilangan maqsadlar to‘liq amalga oshirilmagan. Huquqni muhofaza qilish organlari, sudlar, ta’lim (universitetlar), soliq va bojxona organlari kabi davlat muassasalarida korrupsiya yuqori darajada saqlanib qoldi.

“Transparency International” ma’lumotlariga ko‘ra mamlakatlar reytingida 2009-yilda (ikkinchi korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasining boshlanishi) Armaniston 120-o‘rinni (180 mamlakat ichida), 2010-yilda - 123-o‘rinni (178 mamlakat ichida) va yilda 2011-yil barcha yillar uchun eng yomon ko‘rsatkichlarni ko‘rsatdi, (183 mamlakat ichida) 129-o‘ringa tushdi. 2012-yilda (korrupsiyaga qarshi kurashishning ikkinchi strategiyasi yakunlandi) Armaniston o‘zini tikladi va 105-o‘ringa ko‘tarildi (176 mamlakat ichida). Shunisi e’tiborga loyiqki, Armaniston Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqiga a’zo davlatlar bilan taqqoslaganda, bu vaqt ichida yana eng yaxshi natijalarni ko‘rsatdi. Taqqoslash uchun, 2009-yilda Rossiya 146-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2012-yilda uning pozitsiyasi 133-o‘ringa yaxshilandi. Armaniston Respublikasida korrupsiyaga qarshi siyosatning uchinchi to‘lqini Armaniston Respublikasi hukumatining 2015-yil 25-sentabrdagi 1141-N-son qarori bilan tasdiqlangan 2015-2018-yillarga mo‘ljallangan Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasida ifodalangan.

Korrupsiyaga qarshi kurash yana bir bor Armaniston hukumati faoliyatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilandi. Xususan, Armaniston Respublikasi hukumati korrupsiyaga qarshi kurashning yangicha qayta ko‘rib chiqilgan qarashlari asosida korrupsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirayotgani aniqlandi. Armaniston Respublikasi hukumati

oldiga qo'yilgan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat edi: xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda korrupsiya darajasini pasaytirish; davlat boshqaruvi tizimida vijdonli va mas'uliyatli mansabdor shaxsni shakllantirish; aholining hokimiyat va davlat institutlariga ishonchini oshirish. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashda "o'zgarishlar nazariyasi" asosida korrupsiyaga qarshi kurash jarayonining o'zini qayta ko'rib chiqishni nazarda tutuvchi yanada samarali vositalar qo'llanilishi qayd etildi. Strategiya hukumat tuzilmalariga korrupsiyaga qarshi ichki madaniyatni o'zgartirishga yordam berishi kerak edi.

Strategiyaning ustuvor yo'nalishlari sifatida to'rtta maqsadli sektor tanlandi: sog'liqni saqlash, ta'lim, huquqni muhofaza qilish va soliq sohalari shular jumlasidandir. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni tizimlashtirish va strategiyaning amalga oshirilishini nazorat qilish **Korrupsiyaga qarshi kurash kengashi** zimmasiga yuklatildi.

"Transparency International" mamlakatlar reytingida 2015-yilda (korrupsiyaga qarshi uchinchi strategiyaning boshlanishi) Armaniston 95-o'rinni (168 mamlakat ichida), 2016-yilda 113-o'rinni (177 mamlakat ichida) va 2017-yilda 107-o'rin (180 mamlakat ichida) egalladi. 2017-yilda reyting ko'rsatkichi 2016-yilga nisbatan yaxshilanganiga qaramay, "Transparency International" ekspertlari Armaniston hech qanday yaxshilanish tendensiyalarisiz turg'unlik bosqichida deb hisobladilar.

Yevropa Kengashining Korrupsiyaga qarshi organining (GRECO) hisoboti e'tiborga loyiqdir, unda 2016-yilda **Armaniston** GRECONing korrupsiyaga oid jinoyatlarni jinoiylashtirish bilan bog'liq barcha tavsiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirdi, ammo parlament a'zolari o'rtasida korrupsiyaning oldini olish bilan bog'liq birorta ham tavsiyani bajarmadi. Bundan tashqari, 2016-yil yakuni bo'yicha sudyalarda o'rtasida korrupsiyaning oldini olishga doir tavsiyalarning yarmidan ko'pi (**57%**) bajarilmagan.

Matbuot Erkinligi Indeksi

Boshqaruv
sifati
indikatori

Huquq
ustuvorligi
indeksi

Korrupsiyani
qabul qilish
indeksi

Matbuot
Erkinligi
Indeksi

Jahon
mamlakatlari
demokratiyasi
indeksi

Reyting haqida qisqacha ma'lumot

Umumiy ma'lumotlar

Jahon matbuot erkinligi indeksi 2002-yildan buyon **"Chegara bilmas muxbirlar"** xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan yuritilib, mamlakatlar o'rtasida raqobat tamoyili asosida muhim targ'ibot vositasi hisoblanadi. Bu indeks dunyo bo'ylab **180 ta** davlatlarda jurnalistlar, muxbirlar, ommaviy axborot vositalari (OAV) vakillari faoliyatining erkinligi darajasini aniqlaydi. Bu har bir mamlakat va mintaqada ommaviy axborot vositalari mustaqilligi, qonunchilik bazasi sifati va jurnalistlarning xavfsizligini baholashga asoslangan ommaviy axborot vositalari erkinligining holatidir.

"Chegara bilmas muxbirlar" (RSF) (FR. Reporters sans Frontières) xalqaro nodavlat tashkilotidir. U 1985-yilda **Monpelye**da tashkil etilgan va bosh qarorgohi **Parij**da joylashgan. Tashkilotning vazifasi, o'z veb-saytida: "Dunyo bo'ylab matbuot, jurnalistlar va internet foydalanuvchilari erkinligini himoya qilish" deb ta'kidlangan. Tashkilotning shiori: "Erkin matbuot bo'lmasa, kurash hech qachon ma'lum bo'lmaydi". Tashkilot senzuraqa qarshi va kasbiy faoliyati tufayli qamalgan jurnalistlarni ozod qilish uchun kurashadi. Bunda tashkilot **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining** 19-bandiga tayanadi.

Ushbu baholash indeksi va uning ekspertlari tomonidan 2012-yildan boshlab qo'llaniladigan yangi metodologiyani ishlab chiqishda shakllantirilgan matbuot erkinligi ta'rifiga asoslanadi:

"Matbuot erkinligi – jurnalistlarning alohida shaxslar va jamoalar sifatida siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy aralashuvlardan mustaqil ravishda, ularning jismoniy va ruhiy xavfsizligiga tahdidlar bo'lmagan holda, jamiyat manfaatlarini ko'zlab yangiliklarni tanlash, tayyorlash va tarqatish faoliyatidir".

Jahon matbuot erkinligi indeksining rasmiy veb-sahifasi: <https://rsf.org/en/ranking>.

Ma'lumot manbalari

Mamlakatlarda jurnalistlarning erkinlik darajasi "Chegara bilmas muxbirlar" xalqaro nodavlat tashkiloti ekspertlari tomonidan tuzilgan

Matbuot Erkinligi Indeksi

87 ta savollardan iborat onlayn so'rovnoma bergan javoblar asosida aniqlanadi*.

Anketada baholanadigan mezonlar: plyuralizm, OAVning mustaqilligi, OAV muhiti va o'zini o'zi senzuralash, qonunchilik bazasi, shaffoflik va yangilik va axborotlar yaratishni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma sifati shular jumlasidan. Ushbu sifat tahlili baholangan davrda jurnalistlarga nisbatan tahdidlar va zo'rvonlik harakatlari to'g'risidagi statistik ma'lumotlar bilan birlashtiriladi.

Indeks yuqoridagi ko'rsatkichlarning avvalgi oltitasi bo'yicha alohida hamda yettinchi ko'rsatkich (tahdidlar va zo'rvonlik) bilan birgalikda alohida hisoblanadi. Natijada qaysi ko'rsatkich yuqori bo'lsa ana shu yakuniy baho sifatida olinadi va shu asosda davlatlarning umumiy reytingi tuziladi.

Reyting metodologiyasi

Indikator va baholash

2013-yildan beri mazkur indeks 0 dan 100 gacha ballik shkalada baholanmoqda, bunda 0 ball eng yaxshi amaliyotni, 100 ball esa eng past ko'rsatkichni anglatib, mamlakatlarni o'zaro va yillar bo'yicha qiyosiy baholashda qulaylik yaratadi.

Ushbu ball ikki komponent asosida hisoblanadi:

- jurnalistlarning faoliyati va ommaviy axborot vositalari bilan bog'liq huquqbuzarliklarning miqdoriy hisobi;
- 23 tilda mavjud bo'lgan "Chegara bilmas muxbirlar" xalqaro nodavlat tashkiloti so'rovnomasiga matbuot erkinligi bo'yicha ekspertlarning (jumladan, jurnalistlar, tadqiqotchilar, akademiklar va inson huquqlari faollari) javoblari asosida har bir mamlakat yoki hududdagi vaziyatni sifatli tahlil qilish.

Anketa tillari: arab, bolgar, xitoy (soddalashtirilgan), xitoy (an'anaviy), chex, ingliz, nemis, fors, fransuz, yunon, hind, venger, indonez, italyan, yapon, koreys, mo'g'ul, polyak, portugal, rumin, rus, ispan va turk tillarida..

Ekspertlar tarkibi. Yangi metodologiyani ishlab chiqish uchun 2020-yilda tuzilgan ushbu komissiya sakkiz kishidan iborat. Ular quyidagi ekspertlar:

- **Tomas Hanish**, Myunxendagi Lyudvig Maksimilian universitetining global jurnalistik madaniyat va qiyosiy metodologiyaga ixtisoslashgan aloqa va media tadqiqotlari fakulteti tadqiqotchisi;
- **Devid Levi**, “Reuters” Jurnalistikani o’rganish instituti xodimi va sobiq direktori, “Chegara bilmas muxbirlar”ning Buyuk Britaniyadagi vakolatxonasi a’zosi;
- **Salli Xyuz**, Mayami universitetining jurnalistika va media menejmenti kafedrasi o’qituvchisi, “Miami Herald”, “Washington Post” va “Macleans” gazetalarining sobiq muxbiri;
- **Herman Vasserman**, Keyptaun universitetida media tadqiqotlari yo’nalishi bo’yicha o’qituvchi va “African Journalism Studies” nashri muharriri;
- **Laura Mur**, jurnalist, “Deutsche Welle” akademiyasining Tadqiqot va baholash bo’limi rahbari, “Measuring Global Media Freedom” (Springer VS, 2020) kitobi muallifi;
- **Tibo Bruttin**, “Chegara bilmas muxbirlar” nodavlat tashkilotibosh direktori o’rinbosari;
- **Nalini Lepetit-Chella**, “Chegara bilmas muxbirlar” nodavlat tashkilotining Jahon matbuot erkinligi indeksi bo’yicha rahbar (avvalgisi Prem Sami bo’lgan).

Yil yakuni baholanishi va nashr etilishi o’rtasida mamlakatdagi matbuot erkinligi bilan bog’liq vaziyat keskin o’zgarganda, ma’lumotlar mumkin bo’lgan eng so’nggi voqealarni aks ettirish uchun yangilanadi. Bunga yangi urush, davlat to’ntarishi, jurnalistlarga nisbatan misli ko’rilmagan yoki o’ta noodatiy yirik hujum yoki to’satdan o’ta repressiv siyosatning joriy etilishi sabab bo’lishi mumkin. *(2022-yil indeksi uchun ushbu istisno tartib Rossiya, Ukraina va Mali uchun ishlatilgan).*

Beshta jihat ko’rsatkichlari

Har bir mamlakat yoki hudud matbuot erkinligi bilan bog’liq vaziyatni barcha murakkabliklarida aks ettiruvchi beshta jihat ko’rsatkichlar yordamida baholanadi:

- siyosiy jihat;
- qonunchilik bazasi;
- iqtisodiy jihat;
- ijtimoiy-madaniy jihat;
- xavfsizlik.

Siyosiy jihat 33 savol va kichik savollar davlat yoki boshqa siyosiy subyektlarning siyosiy bosimi ostida ommaviy axborot vositalarining mustaqilligini qo’llab-quvvatlash va hurmat qilish darajasini baholashni maqsad qiladi.

Huquqiy baza 25 savol va kichik savollar jurnalistlar uchun qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazaga taalluqlidir, xususan.

- jurnalistlar va ommaviy axborot vositalarining senzurasiz, sud sanksiyalarisiz yoki ularning so'z erkinligini asossiz cheklamasdan turib erkin faoliyat yuritish darajasini aniqlash;
- jurnalistlar o'rtasida kamsitishlarsiz ma'lumotlardan foydalanish va manbalarni himoya qilish imkoniyatlarini aniqlash;
- jurnalistlarga nisbatan zo'ravonlik harakatlari sodir etgan shaxslarning jazosiz qolishi yoki qolmasligi holati;
- kasbiy standartlarga javob beradigan turli jurnalistik yondashuvlarni, jumladan, siyosiy yo'naltirilgan yondashuvlarni va mustaqil yondashuvlarni qabul qilish darajasini aniqlash;
- ommaviy axborot vositalarining siyosatchilar va hukumatlarning jamiyat manfaatlarini uchun mas'uliyatini oshirishdagi rolini qo'llab-quvvatlash darajasi.

Iqtisodiy jihat 25 ta savol va kichik savollar davlat siyosati bilan bog'liq iqtisodiy cheklovlar (jumladan, ommaviy axborot vositalarini yaratish qiyinligi, davlat subsidiyalarini taqsimlashda tarafdorlik va korrupsiya), nodavlat subyektlar (reklama beruvchilar va tijorat sheriklari) bilan bog'liq iqtisodiy cheklovlar va OAV egalarining o'z biznes manfaatlarini ilgari surish yoki himoya qilishga intilishi bilan bog'liq iqtisodiy cheklovlarni baholashni maqsad qiladi.

Ijtimoiy-madaniy jihat – 22 savol va kichik savollar gender, sinfiy, etnik va din kabi masalalarda matbuotga tuhmat va hujumlar natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy cheklovlar va madaniy cheklovlar, jumladan, jurnalistlarga hokimiyat yoki ta'sirning ba'zi qal'alarini shubha ostiga qo'ymaslik yoki ayrim masalalarni yoritmaslik uchun bosim o'tkazishni baholashni maqsad qiladi (chunki bu mamlakat yoki hududda hukmron madaniyatga zid bo'ladi).

Xavfsizlik bilan bog'liq 12 ta savol va kichik savollar jurnalistlar xavfsizligiga tegishli. Shu maqsadda matbuot erkinligi jurnalistik amaliyot va axloqiy me'yorlarga mos ravishda, ortiqcha xavf-xatarsiz, axborotni aniqlash, to'plash va tarqatish faoliyati sifatida ta'riflanadi:

- badanga shikast yetkazish (shu jumladan qotillik, zo'ravonlik, hibsga olish, ushlab turish va o'g'irlash);
- jurnalistlar yoki ularning yaqinlariga nisbatan qo'rqitish, majburlash, ta'qib qilish, kuzatuv, doksing (shaxsiy ma'lumotlarni yomon niyat bilan e'lon qilish), qadr-qimmatini kamsituvchi yoki nafrat so'zlari, tuhmat va boshqa tahdidlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ruhiy yoki hissiy stress;

- ishini yo'qotish, professional jihozlarni musodara qilish yoki obyektlarni talon-taroj qilish natijasida kelib chiqadigan kasbiy zarar.

Suiiste'mol qilinish darajasini baholash

Suiiste'mol qilinish darajasi ommaviy axborot vositalari va ularning xodimlariga kasbiy burchlarini bajarish chog'ida sodir etilgan suiiste'molliklarni o'rganish asosida hisoblanadi. Suiiste'mol qilinish quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$f(x) = \frac{100}{1+x}$$

bu yerda x - aholi logarifmi bilan taqqoslaganda, reytingdan oldingi kalendar yilida mamlakatda sodir etilgan huquqbuzarliklar yig'indisining o'rtacha soni.

$$x = K \sum_{i=1}^n k_i \frac{X_i}{\log_{10}(\text{pop})}$$

Bu yerda:

- **pop** - aholi,
- **x** - ma'lum i toifadagi suiiste'mollar (qotillik, hujum va h.k.) soni;
- **k** - berilgan i toifa bilan bog'langan koeffitsient;
- **n** - hisobga olingan suiiste'mol toifalari soni;
- **K** - 0 dan 100 gacha bo'lgan mamlakat ballarini taqsimlash uchun matematik vosita sifatida ishlatiladigan omil.

Bu xususiyat bir necha sabablarga ko'ra tanlangan:

- Agar ma'lum bir mamlakatda va ma'lum bir yilda ommaviy axborot vositalari xodimlarining suiiste'moli bo'lmasa, suiiste'mollik balli 100 ni tashkil qiladi.
- Suiiste'molliklar soni ortishi bilan indikator kamayadi va nolga intiladi.

Koeffitsientlarni tanlash

"K" koeffitsientlari turli xil suiiste'mollik turlari o'rtasidagi ierarxiyani o'rnatadi. Ushbu koeffitsientlar uchun uchta asosiy ahamiyat darajasi qo'llaniladi:

To'rtta **Jeneva konventsiyasi**¹ uchun umumiy bo'lgan uchinchi moddaga muvofiq, voz kechishga yo'l qo'ymaydigan huquqlarni buzmaydigan suiiste'mollik holatlari (*1-koeffitsient*) :

- jismoniy kuch ishlatish (tajovuz);
- hibsga olish/qamoqqa olish;
- ommaviy axborot vositalariga qarshi vandalizm.

To'rtta Jeneva konventsiyasi uchun umumiy uchinchi moddaga muvofiq, voz kechishga yo'l qo'ymaydigan huquqlarni buzuvchi suiiste'mollik holatlari:

- garovga olish (koeffitsient 50);
- ushlab turish (davomiylikka qarab o'zgaruvchan omil 25 dan 50 gacha qamoqqa olishlar);
- qotilliklar (koeffitsient 100).

Koeffitsientlar

Suiiste'molliklar toifasi (x i)	Koeffitsient (k)
Qotillik	100
Olib qochish	50
Ushlab turish	50
10 yilga ushlab turish	50
9-10 yilga ushlab turish	47,5
8-9 yilga ushlab turish	45
7-8 yilga ushlab turish	42,5
6-7 yilga ushlab turish	40
5-6 yilga ushlab turish	37,5
4-5 yilga ushlab turish	35
3-4 yilga ushlab turish	32,5
2-3 yilga ushlab turish	30
1-2 yilga ushlab turish	27,5
1 yilga ushlab turish	25
Hujumga uchragan, talon-taroj qilingan OAV	1
Jismoniy kuch ishlatish	1
Hibsga olish	1

¹ 1949-yil 12-avgustda Diplomatik konferensiya tomonidan 1949-yil 21-apreldan 12-avgustgacha Jenevada bo'lib o'tgan urush qurbonlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensionalarni tuzish uchun qabul qilingan.
// URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/geneva_civilian.shtml.

Aholi to'g'risidagi ma'lumotlar manbalari

Suiiste'mol qilinish balini hisoblash uchun mamlakat yoki hudud aholisidan foydalaniladi. Foydalanilgan aholi to'g'risidagi ma'lumotlar Jahon banki² tomonidan e'lon qilinadi, quyidagi hududlar bundan mustasno:

- **Tayvan:** Mahalliy statistika byurosi³;
- **Kipr:** Yevrostat⁴;
- **Shimoliy Kipr:** Jahon bankining Kipr orolining umumiy aholisi to'g'risidagi ma'lumotlari Kiprning Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan qismi aholisi to'g'risidagi Yevrostat ma'lumotlari;
- **Monteserrat** (Buyuk Britaniyaga qarashli dengiz hududlari): mahalliy hukumat⁵;
- **Eritreya:** Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy departamenti tomonidan 2019-yilda dunyo aholisining istiqbollari bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlar⁶.

Amaldagi aholi ma'lumotlari eng so'nggisi mavjud, ya'ni 2022-yil indeksi uchun 2020-yil, ba'zi istisnolar bilan.

Press freedom map

The press freedom map offers a visual overview of the scores of all the countries in the index. The colours and classifications are assigned as follows:

Matbuot erkinligi xaritasi

Matbuot erkinligi xaritasi indeksdagi barcha mamlakatlar ballarining vizual ko'rishini taqdim etadi. Ranglar va tasniflar quyidagicha belgilanadi:

- 85-100 ball – yaxshi (yashil);
- 70-85 ball – qoniqarli (sariq);
- 55-70 ball – muammoli (zarg'aldoq);
- 40-55 ball – og'ir (jigar rang);
- 0-40 ball – o'ta jiddiy (to'q qizil).


² <https://worldbank.org/>.

³ <https://eng.stat.gov.tw/default.aspx>.

⁴ <https://ec.europa.eu/eurostat/databrowser/view/TPS00001/bookmark/table?lang=en&bookmarkId=c0aa2b16-607c-4429-abb3-a4c8d74f7d1e>.

⁵ <https://www.gov.ms/about-us/>.

⁶ <https://population.un.org/wpp/>



2022-yil uchun Jahon matbuot erkinligi indeksi holati

Turli geografik mintaqalarga birlashtirilgan mutaxassislar shu hududlarda jurnalistlarga nisbatan bo'layotgan tahdidlar va zo'rvonlik harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etib boradi. Shuningdek, ular 130 ta davlatlardagi muxbirlar bilan doimiy aloqada bo'lib turadi. Mamlakatlardagi jurnalistlarga nisbatan bo'layotgan tahdidlar va zo'rvonlik harakatlari indikatorini baholayotgan davrda mamlakatda jurnalistlarga bo'layotgan jismoniy tahdidlar, kuch ishlatishlarning darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida hisoblanadi.

Boshqa indekslar bilan bog'liqligi

Jahon demokratiya indeksi (*Democracy Index*), Korrupsiyani qabul qilish indeksi (*Corruption Perception Index*) va Boshqaruv sifati indikatorlari (*World Governance Indicators*) kabi reyting va indekslar bilan bevosita bog'liq

Eng yuqori ko'rsatkichli mamlakatlar

MDH mamlakatlari: **Moldova** (40-o'rin), **Armaniston** (51-o'rin), **Qirg'iziston** (72-o'rin), **Rossiya** (155-o'rin), Belarus (153-o'rin), **O'zbekiston** (133-o'rin), **Qozog'iston** (122-o'rin), **Tojikiston** (152-o'rin), **Ozərbayjon** (154-o'rin), **Turkmaniston** (177-o'rin).

Indeksning yuqori qismida joylashgan uchta **Skandinaviya** davlati - **Norvegiya**, **Daniya** va **Shvetsiya** so'z erkinligi gullab-yashnagan demokratik model bo'lib xizmat qilishda davom etmoqda, **Moldova** (40-o'rin) va **Bolgariya** (91-o'rin) bu yil hukumatdagi o'zgarishlar tufayli

ajralib turishdi va oligarxlar hali ham OAVga egalik qilsalar yoki nazorat qilsalar ham, jurnalistlarning ahvoli yaxshilanishiga umid qilamiz.

2022-yilgi indeksda rekord darajadagi **28** davlatda vaziyat “**juda yomon**” deb tasniflangan va **12 ta** davlat, jumladan **Belarus** (153-o‘rin) va **Rossiya** (155-o‘rin) indeksning qizil ro‘yxatiga kiritilgan (xaritada “**o‘ta jiddiy**” vaziyatni ko‘rsatadi).

Dunyoning matbuot erkinligi eng yomon darajasiga ega **10 ta** davlati **Myanma** (176-o‘rin), 2021-yil fevralidagi davlat to‘ntarishi natijasida matbuot erkinligini 10 yilga orqaga surgan, shuningdek, **Xitoy**, **Turkmaniston** (177-o‘rin), **Eron** (178-o‘rin), **Eritreya** (179-o‘rin) va **Shimoliy Koreya** (180-o‘rin).



Norvegiya



Daniya



Shvetsiya

Reytingda ko‘rsatkichlar va unda O‘zbekistonning o‘rni

Jahon banki ekspertlari tomonidan har yili tuziladigan Matbuot erkinligi indeksining 2022-yil yakunlari bo‘yicha e‘lon qilingan navbatdagi hisobotida O‘zbekistonga berilgan baholar tahlil qilindi.

Indeks tuzishda **180 ta** mamlakatdagi (2021-yilda 180 ta) matbuot erkinligi darajasi baholangan.

O‘zbekiston joriy hisobotga ko‘ra **45,74** (100 dan) ballni qayd etdi. Qiyosan, mintaqada yetakchi **Moldova** – **73,47** ball bilan 40-o‘rinni egallagan.

Siyosiy jarayonlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga uzatilishi, ba‘zi jurnalistlar tomonidan korrupsiya, majburiya mehnat kabi nozik mavzularni yoritish ishlari amalga oshirilmoqda.

Bir necha yillardan buyon taqiqlab kelingan veb-saytlarga kirishga ruxsat berildi. OAVni ro‘yxatga olish tartiblari yengillashtirildi.

O‘zbekiston mintaqada (MDH) 5-o‘rin, dunyoda 133-o‘rinni egalladi.

Hisobotda O‘zbekiston o‘z reytingini 24 pog‘onaga yaxshilab **45,74** ball bilan 133-o‘ringa ko‘tarildi (2021-yilda **49,26** ball bilan 157-o‘rin).

1. Siyosiy indikator bo‘yicha ko‘rsatkichlarimiz **44,75** ball bilan 129-o‘rinni egallagan.
2. Iqtisodiy indikator bo‘yicha ko‘rsatkichlarimiz **35,71** ball bilan 123-o‘rinni egallagan.
3. Qonunchilik indikator bo‘yicha ko‘rsatkichlarimiz **50,88** ball bilan 136-o‘rinni qayd etgan.

Matbuot Erkinligi Indeksi

4. Ijtimoiy indikator bo'yicha ko'rsatkichlarimiz **53,33** ball bilan 138-o'rinni egallagan.

5. Xavfsizlik indikatorini bo'yicha ko'rsatkichlarimiz **44,03** ball bilan 129-o'rinni qayd etgan.

2016-yilda mamlakatimiz mazkur indeksda **38.85** ball bilan 166-o'rinni qayd etgan bo'lsa, so'nggi yetti yilda 33 pog'ona ko'tarilish qayd etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) a'zolari ko'rsatkichlari

№	Mamlakat	2021		2022		Bahodagi o'zgarish	O'rindagi o'zgarish
		Baho	O'ri	Baho	O'rin		
1	Armaniston	71,17	63	68,97	51	-2,2	↑12
2	Qirg'iziston	69,63	73	64,25	72	-5,38	↑1
3	Moldova	68,39	89	72,47	40	+4,8	↑49
4	Rossiya	51,29	150	38,82	155	-12,47	↓5
5	Belarus	49,18	158	39,62	153	-9,56	↓5
6	O'zbekiston	49,26	157	45,74	133	-3,52	↑24
7	Qozog'iston	49,72	155	48,28	122	-1,44	↑33
8	Tojikiston	44,48	162	40,26	152	-4,22	↑10
9	Ozarbayjon	41,23	167	39,4	154	-1,83	↑13
10	Turkmaniston*	19,97	178	25,1	177	+5,13	↑1

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indeksdagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida" 2020-yil 2-iyuldagi PF-6003-son Farmonining 3-ilovasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar bo'yicha samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichlari (KPI) va ushbu reyting va indeksdagi mas'ul davlat organlari va tashkilotlari nazarda tutilgan. Matbuot erkinligi indeksiga mas'ul davlat organi sifatida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi belgilangan (<https://aoka.uz/uzb>).

Xalqaro tajriba

Matbuot erkinligini ta'minlashda Moldova tajribasi

Matbuot erkinligi indeksining 2022-yil uchun e'lon qilingan hisobotida Moldova davlati mintaqada yetakchi o'rin egallab, **180 davlat** orasida **40-o'rinni** egallagan.

Moldova ommaviy axborot vositalari xilma-xil, ammo siyosiy beqarorlik va oligarxlarning haddan tashqari ta'siri bilan ajralib turadigan mamlakatning o'zi kabi juda qutblangan. TV6, NTV Moldova va PRIME TV kabi yirik ommaviy axborot vositalarga turli hil siyosiy guruhlar yetakchilik qilmoqda.

Ba'zi ommaviy axborot vositalari hokimiyatni noqulay ahvolga soladigan masalalarni o'z zimmalariga olishlari mumkin, biroq ko'pchilik o'zlari bog'langan partiyaning siyosiy yo'nalishiga amal qilish bilan cheklanishadi.

Matbuot erkinligi va axborot olish huquqi qonun bilan kafolatlangan, ilg'or tajriba **Jurnalistik axloq kodeksi** bilan rag'batlantirilgan. Lekin sohani tartibga soluvchi qonunlarning o'zi siyosiy yo'naltirilgan nazorat organlari tomonidan o'zboshimchalik bilan qo'llaniladi.

Siyosiy arboblardan va kuchli oligarxlardan yaqin aloqada bo'lgan media kompaniyalar reklama bozorida hukmronlik qilmoqda, bu esa mustaqil ommaviy axborot vositalarining zarariga ishlamoqda. Og'ir iqtisodiy sharoitda mustaqil ommaviy axborot vositalari moliyaviy resurslardan mahrum bo'lib, qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda. Natijada, ular sifatli ishlashga qodir bo'lgan xodimlarni ishga olish uchun kurashmoqdalar. Shu sababli, ko'pchilik ommaviy axborot vositalari chet ellik donorlardan yordam so'rashmoqda.

Ijtimoiy-madaniy muhit kamdan-kam hollarda jurnalistlarning o'z ishlarini bajarishiga to'sqinlik qiladi, ammo ba'zi mavzular, masalan, COVID-19 inqirozining oqibatlari nozik masalalardan biridir. Ushbu mavzularni yoritish o'zini o'zi senzuralashga olib kelishi mumkin, shuningdek, ommaviy axborot vositalarini etnik, diniy yoki gender asosidagi kamsitishga olib kelishi mumkin.

Jurnalistlar muntazam ravishda hukumat mansabdor shaxslari va siyosiy yetakchilar tomonidan haqoratlanadi va qo'rqitishadi. Ularning jangarilari ko'pincha dushman deb hisoblangan muxbirlarga qarshi kiber-tazyiqlarga murojaat qilishadi⁷.

Matbuot erkinligini ta'minlashda Armaniston tajribasi

Armaniston davlati Matbuot erkinligi indeksining 2022-yil uchun e'lon qilgan hisoboti ko'ra 51-o'rinni egallagan. Shuningdek, mintaqada Moldova davlatidan keyin ikkinchi o'rinni qayd etgan.

Qayd etilishicha, Armanistonning asosiy axborot manbalari ijtimoiy tarmoqlar bo'lib, ulardan har kuni aholining uchdan ikki qismi

⁷ <https://rsf.org/en/country/moldova#all-posts>

foydalanadi. 2018- yilgi “baxmal” inqilobdan soʻng mamlakatda media maydon sezilarli darajada kengaydi. Biroq mavjud plyuralizmga qaramay, ommaviy axborot vositalari hali ham qutblanganligicha qolmoqda. Mamlakat dezinformatsiya va nafrat soʻzlari bilan bogʻliq muammolarga duch kelmoqda.

Hisobotda 2021-yil Artsaxdagi 44 kunlik urush, saylovlar va pandemiya oqibatlarini tufayli Armaniston ommaviy axborot vositalari va jurnalistlari uchun ogʻir yil boʻlgani qayd etilgan.

2018-yilgi Baxmal inqilobidan beri media landshafti oʻsdi. Mustaqil onlayn yangiliklar saytlari, jumladan <https://www.civilnet.am/>, <https://hetq.am/hy>, <https://factor.am/>, va <https://www.azatutyun.am/> demokratiyaga qarshi muhim muvozanat sifatida rivojlanmoqda. Biroq asosiy siyosiy va tijorat manfaatlarini bilan bogʻliq boʻlgan aksariyat teleradio va bosma ommaviy axborot vositalari tahririyat bosimiga duchor boʻlishda davom etmoqda.

Sektorning qonunchilik bazasi matbuot erkinligini yetarli darajada himoya qilmaydi va Yevropa standartlariga javob bermaydi. Soʻnggi islohotlar dezinformatsiya va oshkor qilmaslik haqidagi buyruqlar bilan bogʻliq muammolarni hal qilmadi. Aksincha, haqoratning jinoiy hisoblanishi, tuhmat uchun jarimaning uch baravar oshirilishi jurnalistlar uchun jiddiy xavf tugʻdiradi. Ommaviy axborotdan foydalanish hukumat tomonidan cheklangan (javob berishdan bosh tortish, kechikishlar va h.k.)

Aksariyat ommaviy axborot vositalari siyosiy harakatlarga yaqin odamlar tomonidan nazorat qilinadi yoki nufuzli jamoat arboblari tomonidan qoʻllab-quvvatlanadi. Ommaviy axborot vositalarining bir qismi pulli obuna modellariga oʻtdi, reklama bozori esa rivojlanmaganligicha qolmoqda, bu esa xususiy ommaviy axborot vositalarining moliyaviy mustaqilligini cheklaydi. Davlat matbuoti hukumatni har qanday tanqid qilishdan tiyiladi. Ommaviy axborot vositalariga egalik qilishda shaffoflikni kafolatlovchi yangi huquqiy bazani amalga oshirish hali boshlanmagan.

Jurnalistika kasb sifatida kamsitilmoqda va ayniqsa, bezovta qiluvchi nafrat soʻzlariga duchor boʻlmoqda. Siyosiy elitaning jurnalistlarni “korrupsiya”da va oʻz raqiblariga xizmat qilishda ayblaydigan ommaviy axborot vositalariga qarshi chiqishlari jurnalistlar ishiga toʻsqinlik qiladigan murosasizlik muhitini yaratadi. Ular doimo haqoratlanadi, ularga nisbatan hujum qilinadi va ular tuhmat uchun qattiq taʼqib qilinadi, bu esa oʻzini oʻzi senzura qilishni kuchaytiradi.

2021-yil OAV va jurnalistlar uchun Tog'li Qorabog'dagi urush, rejalashtirilgan saylovlar va pandemiya tufayli og'ir yil bo'ldi. Hukumat vazirining muxolifat nashri jurnalistiga hujumi, keyin bir necha oy davom etgan tergov vazirning aybsiz deb topilishi bilan yakunlangani matbuot erkinligi uchun jiddiy zarba bo'ldi. Umuman olganda, jurnalistlarga nisbatan zo'ravonlik jazosiz qolmoqda⁸.

⁸ <https://rsf.org/en/country/armenia>

Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi

Boshqaruv sifati indikatorlari

Huquq ustuvorligi indeksi

Korrupsiyani qabul qilish indeksi

Matbuot Erkinligi Indeksi

Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi

Reyting haqida qisqacha ma'lumot

Umumiy ma'lumotlar

Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi **"Economist Intelligence Unit"** (EIU) instituti tomonidan **har yili** tuziladigan indeks hisoblanadi. Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksining birinchi hisoboti 2006-yilda nashr etilgan. Hisobotlar 2010-yilgacha har ikki yilda, keyin esa har yili chop etilgan. "Economist Intelligence Unit" (EIU) tashkiloti shuningdek, har hafta **"The Economist"** gazetasini nashr etuvchi **Buyuk Britaniyada joylashgan nufuzli "Economist Group" xususiy tashkilotining** tadqiqot manbasi hisoblanadi.

"Economist Intelligence" tashkiloti tobora ortib borayotgan iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar yuzasidan chuqur tahlillar amalga oshiradi. Ushbu tashkilotga asos solingan yillarning boshida, aniqrog'i, 1946-yilda iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar yuzasidan tahlil va kelajak istiqbolini belgilovchi yagona tashkilot hisoblangan.

Shuningdek, tashkilotning asosiy e'tibor qaratuvchi jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

- **Mamlakat tahlili** – mamlakatga oid batafsil iqtisodiy va siyosiy istiqbollarga, shuningdek, mamlakatlar bozoridagi biznes muhitni baholash.
- **Xatarlarni tahlil qilish** – tashkilot tomonidan amalga oshiriluvchi xavf xizmatlari butun dunyo bo'ylab ishonchli va mavjud bo'lish ehtimoli katta bo'lgan tahdidlarni aniqlaydi va davlatlarga ehtimoliy xatardan qutilish yo'llarini tushuntiradi.
- **Sanoat tahlili** – besh yillik istiqbolli rejalar, asosiy mavzular tahlili va iqtisodiyotdagi oltita asosiy sanoat uchun 60 ta yangiliklar mexanizmini ishlab chiqishdan iborat.

Ta'kidlash joizki, ushbu indeks Inson taraqqiyoti indeksiga o'xshash, ammo undan farqli o'laroq, siyosiy institutlar va erkinliklar bilan bog'liq masalalarga ham e'tibor qaratadi. Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi umumiy hisobda **167 ta** davlatdagi demokratiya holatini baholaydi. Indeksning baholash doirasiga kiruvchi davlatlarning **166 tasi suveren davlatlar** bo'lib ulardan **164 tasi BMTga a'zo davlatlardir**.

Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksining rasmiy veb sayti www.eiu.com.

Reyting metodologiyasi

Reytingda baholov

“Economist Intelligence Unit” tashkiloti tomonidan tuziladigan Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksida ko'rsatkichlar ball kesimida baholanadi. To'plash mumkin bo'lgan **eng yuqori ko'rsatkich** bu 10 ball (*demokratiya to'liq ta'minlanganligi*) **eng quyi natija** bu 0 balldan (demokratiyaning mavjud emasligi) iborat.

Baholash mezonni besh indikatorga ajratilgan **60 ta qo'shimcha indikator** bo'yicha amalga oshirilib, asosiy **5 indikator** quyidagilar hisoblanadi:

- saylov jarayoni va plyuralizm;
- fuqarolik erkinliklari;
- hukumatning faoliyati;
- siyosiy ishtirok;
- siyosiy madaniyat.

Ta'kidlash joizki, har bir indikator alohida ravishda baholanadi va umumlashtirilgan baholar umumlashtirilgan holda mamlakatlar uchun yaxlit natija e'lon qilinadi.

I. Saylov jarayoni va plyuralizm

- Milliy qonun chiqaruvchi organ va hukumat boshlig'i iligi saylanadigan saylovlar bepul bo'ladimi?
- Milliy qonun chiqaruvchi va hukumat boshlig'i saylanadigan saylovlar adolatli bo'ladimi?
- Mahalliy saylovlar ham erkin va adolatli o'tadimi?
- Barcha uchun umumiy saylov huquqi amal qiladimi?
- Fuqarolar to'liq mustaqil tarzda davlat yoki nodavlat organlari tomonidan jiddiy tahdidlarsiz o'z ovozlari bera oladimi?
- Qonunlar saylovoldi tashviqoti uchun keng imkoniyatlarni nazarda tutadimi?
- Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish jarayoni shaffof va umumiy qabul qilinganmi?
- Saylovlardan so'ng hokimiyatni bir hukumatdan ikkinchisiga izchil o'tkazishning konstitutsiyaviy mexanizmlari aniq, belgilangan va qabul qilingan mezonlar asosida amalga oshiriladimi?
- Fuqarolarga hukumatdan mustaqil siyosiy partiyalar tuzish erkinligi berilganmi?
- Muxolifat partiyalari hukumatga erishish uchun real istiqbolga egami?

- Davlat idoralari xizmatlaridan foydalanish barcha fuqarolar uchun ochiqmi?
- Fuqarolarga davlat aralashuvi va nazoratisiz siyosiy va fuqarolik tashkilotlarini tuzishga ruxsat beriladimi?

II. Hukumatning faoliyati

- Erkin saylangan vakillar davlat siyosatini belgilaydimi?
- Qonun chiqaruvchi hokimiyat boshqa tarmoqlardan aniq ustunlikka ega oliy siyosiy organmi?
- Davlat hokimiyatini amalga oshirishda nazorat va muvozanatning samarali tizimi mavjudmi?
- Hukumat harbiylar yoki xavfsizlik xizmatlarining nomaqbul ta'siridan xolimi?
- Chet el kuchlari va tashkilotlari muhim davlat funksiyalari yoki siyosatini belgilaydimi?
- Maxsus iqtisodiy, diniy yoki boshqa kuchli mahalliy guruhlar demokratik institutlarga parallel ravishda muhim siyosiy kuchga egami?
- Saylovlar oralig'ida hukumatning saylovchilar oldidagi hisobdorligini ta'minlash uchun yetarli mexanizm va institutlar mavjudmi?
- Hukumatning vakolatlari butun mamlakat hududini qamrab oladimi?
- Hukumat faoliyati ochiq va oshkora, aholining axborotdan yetarlicha foydalanish imkoniyatiga egami?
- Korrupsiya qanchalik keng tarqalgan?
- Davlat xizmati davlat siyosatini amalga oshirishga tayyormi va qodirmi?
- Fuqarolarning o'z hayotini erkin tanlash va nazorat qilish darajasi haqidagi ommabop tasavvurlar.
- Aholining hukumatga ishonchi.
- Aholining siyosiy partiyalarga ishonchi.

III. Siyosiy ishtirok

- Saylovchilarning milliy saylovlarda ishtiroki (majburlov yo'li bilan)?
- Etnik, diniy va boshqa ozchiliklar o'rtacha darajada muxtoriyatga va siyosiy jarayonda o'z ovoziga egami?
- Parlamentdagi ayollar.
- Siyosiy ishtirok etish darajasi. Siyosiy partiyalar va siyosiy nodavlat tashkilotlarga a'zolik?
- Fuqarolarning siyosatga aloqadorligi.
- Aholining qonuniy namoyishlarda qatnashishga tayyorligi.
- Aholining huquqiy savodxonligi?

- Voyaga yetgan aholining yangiliklarda siyosatga qiziqishi va uni kuzatib borish darajasi.
- Davlat rasmiylari siyosiy ishtirokni rag'batlantirish uchun jiddiy harakat amalga oshiradimi.

IV. Siyosiy ishtirok

- Barqaror va faoliyat ko'rsatayotgan demokratiyani ta'minlash uchun yetarli darajada ijtimoiy muros va hamjihatlikning mavjudligi?
- Yetakchilik haqidagi tasavvurlar; parlament va saylovlarni chetlab o'tadigan kuchli yetakchini xohlaydigan aholining nisbati.
- Harbiy boshqaruv haqidagi tasavvurlar; harbiy boshqaruvni afzal ko'rgan aholining ulushi.
- Mutaxassislar yoki texnokratik hukumatning boshqaruv haqidagi tasavvurlari; ekspertlar yoki texnokratlar boshqaruvini afzal ko'radigan aholining ulushi.
- Demokratiya va jamoat tartibini idrok etish; demokratik davlatlar jamoat tartibini saqlashda yaxshi emas, deb hisoblaydigan aholi ulushi.
- Demokratiya va iqtisodiy tizimni idrok etish; demokratiya iqtisodiy ko'rsatkichlarga foyda keltiradi, deb hisoblaydigan aholi ulushi.
- Demokratiyani xalq tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasi.
- Din va davlatni ajratishning kuchli an'anasi mavjudligi?

V. Fuqarolik erkinliklari

- Bepul elektron ommaviy axborot vositalari bormi?
- Bepul bosma ommaviy axborot vositalari mavjudmi?
- So'z va norozilik erkinligi mavjudligi?
- Oqilona fikrlar xilma-xilligi bilan jamoatchilik muammolari ochiq va erkin muhokama qilinadimi?
- Internetga kirishda siyosiy cheklovlar bormi?
- Fuqarolar kasaba uyushmalarini tuzishda erkinmi?
- Muassasalar fuqarolarga shikoyatlarni bartaraf etish uchun hukumatga murojaat qilish imkoniyatini beradimi?
- Davlat tomonidan qiynoqlarning mavjud emasligi.
- Sud hokimiyatining davlat ta'siridan mustaqilligi darajasi.
- Diniy bag'rikenglik darajasi va diniy so'z erkinligi.
- Fuqarolar qonun oldida teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lish darajasi.
- Fuqarolar asosiy xavfsizlikka egami?
- Xususiy mulk huquqi qay darajada himoyalanganligi va xususiy tadbirkorlik davlatning noqonuniy ta'siridan xolilik darajasi.
- Fuqarolar shaxsiy erkinliklardan qay darajada foydalanadilar.

- Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha keng tarqalgan fikrlar; asosiy inson huquqlari yaxshi himoyalangan deb hisoblaydigan aholining ulushi.
- Odamlarning irqi, rangi yoki diniy e'tiqodiga ko'ra kamsitishning mavjud emasligi.
- Hukumatning fuqarolik erkinliklarini cheklash uchun bahona sifatida yangi xavf va tahdidlarga murojaat qilish darajasi.

Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksida 60 ta qo'shimcha indikator uchun "dixotomiya" va 3 ballik baholash tizimining kombinatsiyasidan foydalaniladi. "Dixotomiyali" baholash tizimi 1-0 ball orqali (ha uchun 1 va yo'q javob uchun 0) baholashni nazarda tutadi. Natijalarga ko'ra, bu indeks mamlakatlarni to'rt turdagi rejimdan biriga joylashtiradi. Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksida mavjud 4 turdagi rejim quyidagilar sanaladi:

- to'liq demokratik davlatlar – 8 balldan yuqori;
- qisman demokratik davlatlar – 6 balldan yuqori va 8 balldan kam yoki teng natijadagi davlatlar;
- gibrid rejimdagi davlatlar: 4 balldan katta va 6 balldan kam yoki teng natijadagi davlatlar;
- avtoritar rejimdagi davlatlar: 4 balldan kam yoki teng natijadagi davlatlar.

Rejimlar haqida to'liq ma'lumot

To'liq demokratik davlatlar: nafaqat asosiy siyosiy erkinliklar va fuqarolik erkinliklari hurmat qilinadigan, balki demokratiyaning gullab-yashnashiga yordam beradigan siyosiy madaniyat bilan ta'minlangan mamlakatlardir. Hukumat faoliyati qoniqarli, OAV mustaqil va xilma-xil, nazorat va muvozanatning samarali tizimi mavjud, sud hokimiyati mustaqil va sud qarorlari ijro etiladigan mamlakat tushuniladi.

Qisman demokratik davlatlar: bu mamlakatlarda ham erkin va adolatli saylovlar o'tkaziladi va muammolar mavjud bo'lsa ham (masalan, ommaviy axborot vositalari erkinligini buzish holatlari), asosiy fuqarolik erkinliklari hurmat qilinadi. Biroq demokratiyaning boshqa jabhalarida sezilarli zaifliklar, jumladan, boshqaruvdagi muammolar, rivojlanmagan siyosiy madaniyat va siyosiy ishtirokning past darajasi mavjud bolgan davlatlar hisoblanadi.

